

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV
XO`JALIGI VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
INSTITUTINING BUXORO FILIALI**

“Yer tuzish va yer kadastrı” kafedrası

Himoyaga qo`yilsin:
“Yer tuzish va yer kadastrı” kafedrası
mudiri .v.b. _____ S.Asatov
“ ____ ” _____ 2014 yil

**Buxoro viloyati Vobkent tumani “Oxunboboyev” massivida yer
baholash ishlarini o`tkazish mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BMI ni bajaruvchi:

Xudoyberdiyev F.Sh.

BMI rahbari:

katta o`qituvchi Asatov S.R.

BUXORO – 2014

MUNDARIJA

T/r	Bitiruv malakaviy ishi bo`limlari nomi
1	Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun topshiriq
2	Bitiruv malakaviy ishi dasturi
3	Kirish
4	1-BOB. Massivning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy tavsiflanishi
5	2-BOB. Buxoro viloyati Vobkent tumani “Oxunboboyev” massivida yer hisobini yuritish
6	3-BOB. Massivda yer baholash ishlarini o`tkazish iqtisodiy asoslash
7	Xulosa
8	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati
9	Ilovalar

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTINING
BUXORO FILIALI**

**GIDROMELIORATSIYA FAKULTETI
“YER TUZISH VA YER KADASTRI” KAFEDRASI
5620700-“Yer tuzish va yer kadastri” bakalavriat yo`nalishi**

“TASDIQLAYMAN”
“Yer tuzish va yer kadastri” kafedrası
mudiri _____ S.R.Asatov
“ _____ ” _____ 2013y

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q**

Talaba **Xudoyberdiyev Feruz Shamshodovich**

1.Bitiruv malakaviy ishining mavzusi “Buxoro viloyati Vobkent tumani
“Oxunboboyev” massivida yer baholash ishlarini o`tkazish”.

Filial bo`yicha 2013 yil «19» 12 dagi 325 A/F- son buyruq bilan tasdiqlangan.
30 oktyabr 2013 yil № 2- sonli kafedra majlisida ma`qullangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati “29” 05. 2014 yil

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir boshlang`ich ma`lumotlar
Ishlab chiqarish amaliyoti davrida yig`ilgan ma`lumotlar va matyeriallar.

4.Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar
ro`yxati)

1.Kirish. 2. I bob. Massivning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy tavsiflanishi. 3. II bob.
Buxoro viloyati Vobkent tumani “Oxunboboyev” massivida yer hisobini yuritish. 4.
III bob. Massivda yer baholash ishlarini o`tkazish.

5. Xulosa.

6.Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Chizma ishlari ro`yhati (chizmalar nomi aniq ko`rsatiladi).

1. *Massivning mavjud yerdan foydalanish tarhi.*

2. *Massivning tuproqlar kartasi*

3. *Massivda yer hisobini yuritish loyihasi .*

4. *Loyihaning asosiy texnik iqtisodiy ko`rsatkichlari jadvali.*

6. Bitiruv ishi bo`yicha maslaxatchilar.

T.r	Bo`lim mavzusi	Maslahatchi	Imzo. Sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	2	3	4	5
1	Mehnatni muhofaza qilish masalalari	Jo`raeva S		

7. BITIRUV ISHINI BAJARISH REJASI.

№	Bitiruv ishining bosqichlarining nomi	Bajarish muddati		Tekshiruvdan o`tganlik muddati
		Sana	%	
1	Topshiriq olish va BMI dasturini tuzish	1.11.2013y		
2	I bob. Massivning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy tavsiflanishi	02.12.2013y		
3	Massiv to`g`risidagi barcha umumiy ma`lumotlarni yig`ish.	20.01.2014y		
4	II bob. <i>Buxoro viloyati</i> <i>Vobkent tumani</i> <i>“Oxunboboyev”</i> massivida yer hisobini yuritish.	01.02.2014 y		
5	Massivning yer hisobi ma`lumotlarini yig`ish	22.02.2014y		
6	III bob. Massivda yer baholash ishlarini o`tkazish	4.03.2014y		
	Massivda tarqalgan yer turlari va tuproq xillari to`g`risidagi ma`lumotlarni yig`ish	16.03.2014y		
7	Loyihaning iqtisodiy-ekologik ko`rsatkichlarini aniqlash	19.04.2014 y		
8	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish.	01.05.2014 y		
9	BMIni rasmiylashtirish va kafedraga topshirish.	29.05.2014 y		

Bitiruv ishi rahbari:

Topshiriqni bajarishga oldim:

Topshiriq berilgan vaqti: 30.10. 2013 yil

Asatov S.R.

Xudoyberdiyev F.Sh.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO`JALIGI
VAZIRLIGI
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTINING
BUXORO FILIALI**

“Yer tuzish va yer kadastrı” kafedrası

“TASDIQLAYMAN”
“Yer tuzish va yer kadastrı” kafedrası
mudiri _____ S.R.Asatov
“ _____ ” _____ 2013y

**“Buxoro viloyati Vobkent tumani “Oxunboboyev” massivida yer baholash
ishlarini o`tkazish” mavzusida bajariladigan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI
DASTURI**

**BMI ni bajaruvchi:
Rahbar:**

**Xudoyberdiyev F.Sh.
katta o`qituvchi S.R.Asatov**

Kirish

1. **O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning** mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida qayd etilgan respublikamizda qishloq xo`jalik yerdan foydalanishlarini tashkil qilishning o`ziga xos xususiyatlari.
2. Massivda yer baholash ishlarini o`tkazish xususiyatlari.
3. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, unda qo`yilgan vazifalar va asos qilib olingan materiallar.

I BOB. “Buxoro viloyati Vobkent tumani “Oxunboboyev” massivi hududining tabiiy va iqtisodiy sharoiti

- I.1. Massiv to`g`risida umumiy ma`lumotlar.
- I.2. Tabiiy sharoiti (iqlimi, rel`efi, tuproqlari).
- I.3. Massiv hududi bo`yicha yerdan foydalanishning holati (yer eksplikatsiyasi)
- I.4. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari tavsifi.
- I.5. Aholi yashash joylari tavsifi.
- I.6. Dehqonchilik tavsifi.
- I.7. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishining asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari.

II.BOB. Massivda yer hisobini yuritish.

- 2.1. Yer hisobi mazmuni, mohiyati.
- 2.2. Yer hisobining turlari va o`tkazish usullari.
- 2.3. Massivdagi yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar yerlarining hisobi.
- 2.4. Yer hisobini yuritishda mehnat muhofazasi.

III.BOB. Massivda yer baholash ishlarini o`tkazish.

- 3.1. Massivda tarqalgan yer turlari va tuproq xillari tavsifi.
- 3.2. Tuproq bonitirovkasi.
- 3.3. Yerlarni baholash.
- 3.4. Yerlarni baholashning iqtisodiy mohiyati.
- 3.5. Yer baholash ishlarini o`tkazishning ekologik asoslari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Ilovalar.

KIRISH.

Yer tabiiy resurslar ichida o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. U mamlakatimiz aholisining turmush farovonligini ta`minlaydi, respublikamizning iqtisodiy salohiyati uchun moddiy negiz yaratadi. Shu sababli yerdan har qanday davrda va sharoitda oqilona, unumli va ilmiy asoslangan tarzda foydalanishni to`g`ri tashkil etish mamlakat buguni va kelajagi uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida yer zahiralarining cheklanganligi va sifat tarkibining pastligi bilan bog`liq xavf to`xtovsiz ortib borayotganligi, ayni vaqtda yer ulkan boylik bo`libgina qolmay, balki mamlakatimizning kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi, shuning uchun ham yerlarni muhofaza qilish, ulardan o`ta samaradorlik bilan va oqilona foydalanishni yo`lga qo`yish zamonamizning eng dolzarb masalasi ekanligi alohida ta`kidlab o`tilgan.

2013 yilning 18 yanvar' kuni Toshkent shahrida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor vazifalariga bag`ishlangan majlisi bo`lib o`tdi. Majlisda Prezident Islom Karimov nutq so`zladi va 2013 yilda O`zbekiston yalpi ichki mahsuloti 8 foiz o`sganini ta`kidladi. Prezidentimiz, majlisda qishloq xo`jaligida amalga oshirilayotgan ishlarining natijalari haqida qisqacha to`xtalib o`tdi: “2013-yilda qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko`paydi. Faqat o`tgan yilning o`zida qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o`sdi. Aytish kerakki, izchil yuqori o`sish sur`atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo`jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko`rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2013-yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi. Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o`zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan

zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor. Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla yetishtirish 2000-yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1-marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2-marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi. O'tgan 2013-yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi. Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

Yurtimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning kelajagi haqida gapirganda, yer va suv resurslari bo'yicha imkoniyatlarimiz cheklanganini hisobga olib, bu borada yagona to'g'ri yo'l – qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanish, eng muhimi – dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash, desam, o'ylaymanki, barchangiz mening fikrimga qo'shilasiz. Faqat yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish – bu qishloqni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish bo'yicha biz tanlagan yo'ldir.

2008-yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi. Xabaringiz bor, o'tgan yili 2013-2017-yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturini qabul qildik. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer xo'jaliklarining o'zi ushbu dasturda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi darkor.

Mavzuning ahamiyati. Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan jamiyat hayotining hamma sohalarini erkinlashtirishga qaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy qayta qurish siyosati, yer munosabatlarini tartibga solishga, yer resurslaridan unumli foydalanish darajasini oshirishga obyektiv sharoitlar yaratdi. O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishishi, mustaqil davlat deb e'lon qilinishi va huquqiy jamiyat qurishi, o'z hududida yer munosabatlarini tartibga solishda va rivojlantirishda to'la mustaqillikka erishganligi, uning yerlardan oqilona

foydalanishi, meliorativ holatini yaxshilash va muhofaza qilishning huquqiy asosini yaratish va takomillashtirish imkonini beradi. Mamlakatimiz agrar sohasida islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash maqsadida bir qancha qonunlar qabul qildi. Birinchi galda mamlakatdagi yerga bo'lgan munosabatning huquqiy asoslari Konstitutsiyada belgilab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida «Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir», - deb belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi"(1998 yil 30 aprel'), "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi qonun, "Davlat kadastrlari to'g'risida"gi qonun va boshqa qishloq xo'jalikdagi islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, so'nggi yillarda yerdan foydalanish sohasida ko'plab yangiliklar joriy qilindi, jumladan, yerdan ijara asosida foydalanish huquqi rivojlandi, yer uchastkalariga bo'lgan ashyoviy huquqlar kimoshdi savdolarida sotila boshlandi, eng muhimi rivojlangan bozor talablariga mos ravishda yer uchastkalarini xususiylashtirish ishlari yo'lga qo'yildi.

Bunday sharoitda yer boyliklaridan unumli, oqilona, samarali, ilm-fan tavsiyalari, tabiatning umumiy qonuniyatlari asosida foydalanish va uni muhofazasini to'g'ri ta'minlash, yerlarning toifalari, foydalanish maqsadi va iqtisodiy samaradorligi o'zgarishlarining aniq hisobini olib borish, natijalarni tahlil qilish orqali aniq ilmiy xulosalar yasash va ushbu xulosalar asosida yerlarda kelib chiqadigan salbiy jarayonlarni oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, hozirgi davrning birinchi darajali dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu maqsadda biz tomonimizdan tanlangan mavzu Buxoro viloyati Vobkent tumani "Oxunboboyev" massivida yer hisobini yuritish ishlarini o'tkazishga qaratildi.

I BOB. Massiv hududining tabiiy va iqtisodiy sharoiti

I.1. Massiv to'g'risida umumiy ma'lumotlar

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi Oxunboboyev massivi 1930 yil 24 iyunda tashkil topgan. Massiv paxtachilikka ixtisoslashgan bo'lib, bundan tashqari chorvachilik, bog'dorchilik, parrandachilik va ipakchilik ham rivojlangan. Massiv hududi shimoldan "R.Husenov" nomli massivi bilan, sharqdan "So'fidehqon" massivi yerlari bilan, janubdan "Xayrobodcha" massivi yerlari bilan, g'arbdan "Yangi turmush" massivi yerlari bilan chegaradosh. Massivning umumiy maydoni 2664,9 gektarni tashkil etadi. Massivda 2645 ta oila istiqomat qilib, aholining umumiy soni 10392 nafarni tashkil etadi. Massivning markaziy qishlog'i Xargo'sh bo'lib, u tuman markazi bilan 20 kilometr masofada viloyat markazigacha bo'lgan masofa esa 30 kilometr uzoqlikda joylashgan. Bundan tashqari massivda begona yerdan foydalanuvchilar yerlari ham joylashgan. Bu yerlarga quyidagilar tashkil qiladi:

Paxtani qayta ishlash zavodi -7,96 gektar.

Qabristonlar -2,19 gektar.

Pilla punkti -5,67 gektar.

I.2. Tabiiy sharoiti (iqlimi, rel'efi, tuproqlari)

Iqlimi. Massivning iqlimi kontinental. Shu sababli massiv iqlimi yozida issiq bo'lib, qishida esa sovuq bo'ladi. Yog'ingarchilikni asosiy qismi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Yillik yog'ingarchilik o'rtacha 120-180 millimetrni tashkil etadi. Namgarchilik yoz oylarida kam bo'lib 5-20% ni iborat. Iyul oylari bo'lib harorat 35-40 °S tashkil qiladi. Hududning umumiy iqlim sharoiti bir omil: cho'l iqlimi va chala cho'llar iqlimi ta'sirida shakllanadi. Iqlimning umumiy xususiyatlari tekislik va cho'l oldi hududlarida uning keskin quruqligi, janubiy g'arbda cho'l va chala cho'l yerlarida havo haroratining ko'tarishi yog'inlar miqdorining kamayib borishi quyosh radiatsiyasi, kunlik, oylik, yillik va fasllarda haroratning katta oraliqda tebranib turishi va atmosferada yog'inlarining yil davomida noteks taqsimlanishida o'z aksini

topadi. Massivda sovuqsiz davrning davomiyligi 208 kunni tashkil qiladi. effektiv faol temperatura yig'indisi $4000 - 4400^0$, effektiv foydali temperatura yigindisi esa $2100-2300^0$ S. Ko'p yillik o'rtacha temperatura $+16^0$ S.

Ilk sovuq urish davri oktyabrning oxirgi 10 kunligiga to'g'ri keladi. Ko'p yillik ma'lumotlarga qaraganda oxirgi sovuq urish davri mart oyi oxiriga, hatto aprel oyi o'rtalariga ham to'g'ri keladi.

Iyuldagi o'rtacha temperatura $+28,8^0$ S. $+10^0$ S haroratdan yuqori davr 28 martdan 28- oktyabrigacha 210 kunni tashkil qiladi. Eng sovuq oy yanvarda $-7,0^0$ S tashkil etadi absolyut minimum harorat 27-29 gacha pasayadi.

Baxorgi kuchli yomg'irlar havo haroratini pasaytirib tuproq qatqalog'ini sodir etadi, ayrim yillarda ekin maydonlarini buzib qayta eqishga to'g'ri keladi.

Yillik yog'inlarning o'rtacha miqdori katta oraliqda tebranib 140 mm ni tashkil etadi, uning maksimal miqdori qish bahor oylarida to'g'ri keladi, yoz oylarida yog'inlar deyarli bo'lmaydi. Yog'inlar miqdorining kam bo'lishi va yoz oylaridagi yuqori harorat tuproqdan yuqori bug'lanishni sodir etadi. Bug'lanish 1280 -1470 mm.ni, atmosferaga yog'inlari 320-363 mm.ni tashkil etgani holda, namlik tanqisligi (bug'lanish minus yog'inlar) 960-1107 mm ga teng ko'rsatkichlarda kuzatiladi. SHamolning o'rtacha tezligi 1,5-3,4 m/sek ga teng bo'lib, uning maksimal tezligi 22-28 m/sek.ni tashkil etadi.

Rel'efi. Massivning rele'fi asosan tekislikdan iborat bo'lib, massivning ba'zi qismida tepaliklar ham uchray turadi. Bu o'z navbatida massivda turli xil noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Xo'jalikda taqir o'tloqi, o'tloqi va o'tloqi – botqoq sug'orma dehqonchilik tuproqlari tarqalgan hududlar rivojlangan. Hududda asosan o'tloqi tuproqlar ko'proq tarqalgan. Yerlarning asosiy qismi paxta va g'alla maydonlari tashkil qiladi. Grunt suvlarining sathi rel'ef tuzilishiga bog'liq holda 1,2-2,5 metrdan 2.5-3.0 metrgacha va Zarafshon daryosi atrofidagi yerlarda 0.5-+ 1.0 metrgacha tebranib turadi, tuproq hosil bo'lish jarayonlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Xo'jalik hududida murakkab geologik, geomorfologik-litologik, tuproq-iklim sharoitlari regionda o'ta

murakkab gidrogeologik holatni keltirib chiqargan, bu holat yer usti va yer osti suvlari rejimi va balansi ko`rsatkichlarida o`z aksini topgan.

Xo`jalik tabiiy va sun`iy kam zovurlashgan tekislik qismi asosiy maydonlarida yerlarni yuqori me`yorlarda sug`orish va boshqa bir qator omillar grunt suvlarining yer yuzasiga ko`tarilishiga imkon yaratmoqda, bu holat o`z navbatida tuproqda tuz tuplanish va qayta sho`rlanish jarayonlari kelib chikmokda. Yer osti suvlari satxining davriy ravishda tebranib turishi yil fasllari bo`yicha o`zgarib, hududlarda murakkab gidrogeologik jarayonni keltirib chiqargan. Xo`jalikda tutash yerlarida yer osti suvlarining sathi 2-2,5 m va undan ortiq chuqurlikda kuzatilsa, tekislik qismining asosiy maydonlarida 1,5-2,0 metr atrofida kuzatilsa, ayniqsa, tekislikning botiq, pastqamlik yerlarida yer osti suvlari oqimi deyarli ta`minlanmagan sharoitda suvda oson yeruvchi tuzlar miqdori ortib, tuproqlar va grunt suvlaridagi dastlabki xlorid-sul`fatli sho`rlanish tipi asosan xloridli sho`rlanish ximizmiga aylanib bormoqda.

Grunt suvlarining minyeralizatsiya darajasi xo`jalikning turli qismlarida turlicha ko`rsatkichlarda hududning o`rta qismlarida 2-3 g/l, quyi pastqam yerlarda 3-5 g/l va undan ortiq miqdorni tashkil etadi. Jumladan, tuman yerlarida grunt suvlari o`rtacha minyerallashganlik darajasi 1.5-2 g/l ko`rsatkichlarida qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, sug`oriladigan yerlarida salbiy meliorativ jarayonlar kuzatilib, gidromorf (o`tloqi) tuproqlar maydoni kengaymokda, grunt suvlari yer yuzasiga yakinlashib, sho`rlanish jarayonlari kuchayib bormokda, ularni oldini olish va salbiy jarayonlarni to`xtatish muammosi asosiy dolzarb masala bo`lib qolmoqda.

Tuproqlari. Xo`jalik sug`oriladigan yer maydonlarining tuproqlari: subtropik cho`l zonasi, allyuvial yotqiziqlaridan tashkil topgan Zarafshon vohasi tekisliklari geomorfologik rayonida tarqalib turli litologik, gidrogeologik va tuproq- iqlim sharoitlarida rivojlangan.

Xo`jalik tuproqlari cho`l tuproqlar zonasida tarqalganligi bois, asosan avtomorf, yarim gidromorf tuproqlar keng tarqalgan. Sug`oriladigan o`tloqi,

taqirsimon o'tloqi va o'tloqi cho'lli tuproqlardan iborat bo'lib, bu tuproqlar tarqalgan hududlar uchun o'ziga xos xususiyatlar - shamol yeroziyasi hamda sho'rlanish jarayonlariga moyilligi, chirindi (gumus) va boshqa ozuqa moddalarining kamligi, ularning harakatchan shakllari bilan kam ta'minlanganligi, grunt suvlarining sathi nisbatan yaqinroq, kuchli minyerallashgan, tuproqlari asosan o'rtacha va engil qumoqli mexanik tarkibdan iborat.

Xo'jalik sug'oriladigan o'tloqi tuproqlari engil mexanik tarkibdan iborat, fizik loy fraktsiyalari ($<0,01$ mm) miqdori keng oraliqda - 22,1-25,4% ko'rsatkichlarda kuzatiladi. Ayrim hollarda o'rtacha va og'ir mexanik tarkiblar ham uchraydi. Tuproqlarning meliorativ holati ularning yer osti suvlari va minyerallashganlik darajasi bilan aloqadordir.

Tuproqning ustki haydalma qatlamidagi gumus miqdori o'rtacha 0,82-1,00% ni, harakatchai fosfor o'rtacha - 12,5-15,8 va almashinuvchi kaliy - 127-219 mg/kg ni tashkil etadi. Mazkur cho'lli o'tloqi allyuvial tuproqlari gumus bilan kam, xarakatchai fosfor miqdoriga ko'ra kam va o'rta, almashinuvchi kaliy kursatkichlariga ko'ra esa kam, ba'zan o'rtacha ta'minlangan tuproqlar guruxini tashkil etadi.

Suvli so'rim natijalariga ko'ra o'tloqi tuproqlari kam sho'rlangan, o'rta sho'rlangan va kuchli sho'rlangan ayirmalardan iborat. Kam sho'rlangan o'rta sho'rlangan sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda suvda oson yeruvchi tuzlarning umumiy miqdori kam sho'rlangan 0,256-0,264%, o'rtacha 0,576-0,766%; kuchli sho'rlangan tuproqlarda - 1,560-1,630% ni tashkil etadi. SHO'rlanish ximizmiga ko'ra xlarid-sulfatli sho'rlanish tiplaridai iborat

Sug'oriladigan o'tloqi tuproqlari o'rta qumoqli va engil qumoqli mexanik tarkibdan iborat, fizik loy fraktsiyalarining miqdori 27,4-43,5% ni, haydalma qatlamdagi gumus o'rtacha 0,61-0,88% ni tashkil etib, kam ta'minlangan, harakatchai fosfor o'rtacha 10,0-15,8%, almashinuvchi kaliy - 118-205 mg/kg ni tashkil etgani holda kam va o'rtacha ta'minlangan tuproqlar qatoriga kiradi. Xo'jalikni sug'oriladigan o'tloqi tuproqlari asosan kam, o'rta va kuchli darajada

sho`rlangan.

Tuproq tadqiqot ma`lumotlarining taxlili shuni ko`rsatadiki, xo`jalik hududidagi sug`oriladigan cho`lli o`tloqi tuproqlari o`zlarining rel'efi va geomorfologik-litologik tuzilishiga ko`ra, nisbatan murakkab hudud hisoblanib, bu tuproqlarning o`ziga xos xususiyatlari - gumus qatlamining kamligi. Ayrim tuproq ayirmalarini hisobga olmaganda harakatchai fosfor va kaliy miqdoriga ko`ra o`rta ta'minlangan. Quyidagi 1-jadvalda massivning tuproq eksplikatsiyasi keltirilgan.

I.3. Massiv hududi bo`yicha yerdan foydalanishning holati (yer eksplikatsiyasi)

Massivning yer maydonlari va ularning ixtisosligiga qarab yerdan foydalanish va ishlab chiqaradigan maxsulotning hajmiga qarab belgilanadi. Yerdan foydalanish –bu aniq maqsad uchun doimiy (muddatsiz) yoki vaqtinchalik (uzoq muddatli, qisqa muddatli) ijarani ham qo`shib byerilgan aniq maydonga, joylashgan o`rniga, huquqiy maqomiga va joylarda belgilangan aniq chegaralariga ega yer uchastkasidir. Yerdan foydalanish qishloq xo`jalik korxonalarida va fermer xo`jaliklarida yer tuzish ularni joylashtirish, maydonini ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish yerdan ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanishni va uni muxofaza qilish tashkil etish. Qishloqlarda aholining asosiy qismi joylashgan bo`lib yerdan foydalanishiga ko`ra umumiy va yakka tartibda foydalaniladilar. Qishloq xo`jaligi uchun foydalaniladigan yerlarda asosiy ekin turlari poliz maxsulotlarini etishtirishda bog`dorchilik va uzumchilikka katta e`tibor beriladi

2014 yil 1 yanvar' holatiga nisbatan «Oxunboboyev» massiviga 2193 ga yer maydoni foydalanish uchun birlashtirilgan. Massiv yer fondining yer turlari bo`yicha taqsimlanishi to`g`risidagi ma`lumotlar quyidagi 2- jadvalda keltirilgan.

Vobkent tumani "Oxunboboyev" massivi tuproq eksplikatsiyasi

№ tuproq ayirmalari	Sug`orish muddati	Mexanik tarkibi			CHirindi		Harakatdagi mg-kg miqdori		SHo`rlanish				Joylashish chuqurligi				Maydoniga		Bonitet balli	Unumdorlik klassi
		0-30	30-100	100-200	Qatlam qalinligi	%	R2O5	K2O	darajasi	Quruq qoldiq	Cl	SO4	SHag`al	Gley	Gips	Yer osti suvlari,m	Umumiy	Sug`oriladigan q/h yerlari		
1	Sug`oriladigan tuproqlar	Og`ir qumoli	Og`ir qumoli	Og`ir qumoli	60	0.95	15.8	145	ka m	0.286	0.035	0.134				1.5-2	340.0	261/51	58	VI
2	Sug`oriladigan tuproqlar	Og`ir qumoli	Og`ir qumoli	Og`ir qumoli	55	0.81	13.3	210	O`r ta	0.732	0.115	0.330				1.5-2	150.0	121/24	50	V
3	Sug`oriladigan tuproqlar	Og`ir qumoli	Og`ir va o`rta qumoli	qumlar	60	0.70	8.6	145	kuchli	1.540	0.231	0.700	120 sm ko`p			1.5-2	55.0	47/3	34	IV
4	Sug`oriladigan tuproqlar	Urta qumoli	Urta qumoli	Urta qumoli	65	0.88	15.8	154	ka m	0.286	0.035	0.130				1.5-2	680.0	649/25	59	VI
5	Sug`oriladigan tuproqlar	Urta qumoli	Og`ir va o`rta qumoli	Og`ir qumoli	50	0.79	13.3	181	O`r ta	0.800	0.084	0.400				1.5-2	58.0	46/5	48	V
6	Sug`oriladigan tuproqlar	Urta qumoli	Og`ir qumoli	Og`ir qumoli	60	0.78	11.7	172	O`r ta	0.930	0.140	0.420	100sm ko`p			1.5-2	200.0	154/32	48	V

[illegible]

2-jadval

Massivning yer fondi

№	Yer turlari	Umumiy maydoni ga	Umumiy maydonga nisbatan, % hisobida	Qishloq xo`jalik yerlariga nisbatan, %
1	Haydalma yerlar: Shu jumladan: sug`oriladigan	939	42.8	61.09
2	Ko`p yillik daraxtzorlar, jami:	75,0	3,4	4.8
	Shu jumladan, bog`lar	10		0.6
	uzumzor	4		0.2
	tutazorlar	61		4
3	O`tloq va yaylovlar	523	23.8	34.02
	Jami qishloq xo`jalik yer turlari	1537	70	100
4	Tomorqa yerlari	132	6	
5	Tyerakzor	6.6	0,3	
6	Ixota daraxtlari va tyerakzor	1	0,04	
7	Qurilishlar, ko`chalar, maydonlar	26	1.4	
8	Ariq, kanallar va zovurlar	103	4.8	
8	Yo`llar	42	1,9	
10	Qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	345	15.7	
	Xo`jalikka biriktirilgan yerlar, jami	2193	100	

2-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, massiv umumiy maydonining 61.09 % ini, ya`ni 939 ga maydonini haydalma yerlar tashkil qiladi. Daraxtzorlar maydoni 75 ga, bu esa umumiy maydonning 4.8 % ini tashkil etadi. Bunda bog`zorlar maydoni 10 ga, uzumzorlar maydoni 4 ga, tutzorlar maydoni 61 ga ni tashkil etadi. Jami qishloq xo`jalik yerlari 1537 gektar bo`lib, umumiy yer maydonining 70 % ini tashkil qiladi. Tomorqa yerlari maydoni 132 ga bo`lib, bu umumiy yer maydonining 6 % ini tashkil etadi.3-jadval

«Oxunboboyev» massivida begona yerdan foydalanuvchilar ro`yxati

№	O`zga yerdan foydalanuvchilar nomi	Maydoni, ga
1	Paxtani qayta ishlash zavodi	7.96
2	Pilla punkti	5.67
	Jami	13,63

3-jadvalda massiv hududidagi o`zga yerdan foydalanuvchilar ro`yxati byerilgan bo`lib, ularning umumiy soni 2 tani tashkil etadi. Massiv hududidagi o`zga yerdan foydalanuvchilar yerlarining umumiy maydoni esa, 8,73 gektarni tashkil etadi.

Massiv hududida fermer xo`jaliklari tashkil etilishi natijasida maydonlar fermer xo`jaliklariga taqsimlab byerildi. Fermer xo`jaliklariga biriktirilgan yer maydonlari va yer turlari haqidagi 2013 yil 1 yanvar holatiga bo`lgan ma`lumot quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Fermer xo`jaliklarining yer turlari bo`yicha maydonlari

Fermer xo`jaligi nomi	Yunalishi	Umumiy yer maydoni	SHu jumladan																				
			Ekin yerlar				Ko`p yillik daraxtzorlar							Buz yerlar	Pichanzorlar	Y Aylov yerlar	Jami qishloq xujalik yer turlari	Urmonzor	Yul osti yerlar	Ijtimoiy		Kurilishlar	Boshqa yerlar
			Jami	SHu jumladan			Jami	SHu jumladan				Xovli, kucha	Binolar										
				suvli	SH.j.xolati yomon	lalmi		bog	uzum	tutzor	boshqa kup yillik daraxtzorlar												
SHamshod SHukur SHaxnoza	pax-g`al	58,8	39,8	39,8			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	39,8						19,1		
Jaxongir mirzo shoxi jaxon	pax-g`al	46,0	41,5	41,5			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	41,5						4,5		
Tuxtamurod Abbas	pax-g`al	59,9	43,8	43,8			11,5	3,3	0,0	8,2		0		0,0	55,3						4,6		
Safo Pulot	pax-g`al	49,9	41,3	41,3			4,4	0,0	0,0	4,4		0		0,0	45,7						4,2		
Asad Aslon Mirxon	pax-g`al	56,3	46,7	46,7			3,0	0,0	0,0	3,0		0		0,0	49,7						6,6		
Juma Raxmatbobo	pax-g`al	79,1	57,9	57,9			1,7	0,0	0,0	1,7		0,67		0,0	60,3						18,8		
Kaxramon Tolib	pax-g`al	63,1	52,3	52,3			4,6	1,6	1,1	1,8		0		0,0	56,8						6,3		
Murod Doston	pax-g`al	45,3	39,8	39,8			1,5	0,0	0,0	1,5		0		0,0	41,4						3,9		
Amon Akbar Alishyer	pax-g`al	44,2	34,4	34,4			4,4	4,4	0,0	0,0		0		0,0	38,9						5,3		
Maxmud ugli mansur	pax-g`al	61,3	34,7	34,7			9,4	3,0	3,1	3,3		0		0,8	44,9						16,4		
Rajab ugli Salim	pax-g`al	45,1	40,0	40,0			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	40,0						5,1		

Bozorov Furkat	pax-g`al	70,3	59,5	59,5			2,8	0,4	0,0	2,5		0		0,0	62,3						7,9
Xamid Aziz Azim	pax-g`al	44,5	39,3	39,3			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	39,3						5,1
Asad Baxshillo Ne`mat ugli	pax-g`al	53,1	47,9	47,9			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	47,9						5,2
SHavkat-98	pax-g`al	67,8	50,4	50,4			9,6	0,1	0,0	9,5		0		0,0	60,0						7,8
Olim 2000	pax-g`al	54,3	40,8	40,8			0,0	0,0	0,0	0,0		0, 8		0,0	41,6						12,7
Rozikov SHarof	pax-g`al	76,7	61,7	61,7			8,7	3,7	0,0	4,9		0		0,0	70,4						6,3
Zubaydullo	pax-g`al	45,0	38,8	38,8			2,9	0,0	1,1	1,8		0		0,0	41,7						3,4
Tursunobod N	pax-g`al	70,2	47,7	47,7			11, 3	5,2	1,9	4,2		0		0,0	58,9						11,3
SHuxrat Jura	pax-g`al	74,5	56,8	56,8			8,5	0,3	0,5	7,7		0		0,0	65,3						9,2
Robiya Mayram Oybek	pax-g`al	50,1	30,3	30,3			14, 1	2,8	11, 3	0,0		0		0,0	44,4						5,6
Uzro Sardori SHaxzod	pax-g`al	50,3	36,9	36,9			3,1	0,0	2,5	0,6		0		0,0	40,0						10,3
Dilshod Boboev	pax-g`al	84,5	57,5	57,5			13, 3	2,7	1,4	9,2		0		0,0	70,8						13,7
Raximov Xikmat	pax-g`al	53,0	34,4	34,4			4,3	0,5	0,4	3,5		0, 8 1		0,0	39,5						13,5
Ali Said Komil	pax-g`al	54,1	33,4	33,4			13, 3	3,9	6,2	3,2		0		0,0	46,7						7,4
Jura Vaxob Diyorbek	pax-g`al	96,3	78,8	78,8			7,7	1,8	0,0	5,9		0		0,0	86,5						9,9
Jasur	pax-g`al	48,5	42,8	42,8			0,0	0,0	0,0	0,0		0, 5 2		0,0	43,3						5,2
Jamshid ugli SHaxboz	pax-g`al	103,4	73,8	73,8			10, 4	8,5	0,0	1,9		0		0,0	84,2						19,2
SHaxboz SHaxzod Istat	pax-g`al	49,4	30,4	30,4			0,0	0,0	0,0	0,0		1, 8		0,0	32,2						17,1
Zilola Odilova	pax-g`al	120,9	93,4	93,4			5,5	0,0	0,0	5,5		1,		0,0	100,4						20,5

											5 4									
Kozixon	pax-g`al	104,6	91,1	91,1			2,1	0,0	0,0	2,1		0		0,0	93,1					11,5
Rashid Abdullo	pax-g`al	44,5	39,1	39,1			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	39,1					5,4
Tosheva Zubayda	pax-g`al	47,4	37,2	37,2			1,8	1,8	0,0	0,0		0		0,0	39,0					8,4
Boboxikmat	pax-g`al	49,7	40,8	40,8			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	40,8					8,9
Abduraxmon ugli Abdulaziz	pax-g`al	50,1	40,4	40,4			0,9	0,9	0,0	0,0		0		0,0	41,2					8,9
Yangi Xayot	pax-g`al	55,2	41,4	41,4			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	41,4					13,9
SHamshod Amon	pax-g`al	58,7	43,6	43,6			5,7	0,0	0,0	5,7		0		0,0	49,2					9,5
Fyeruz Abdurauf	pax-g`al	44,4	33,4	33,4			3,9	3,9	0,0	0,0		0		0,0	37,3					7,0
SHarif Mubin	pax-g`al	42,7	34,6	34,6			1,5	0,4	1,2	0,0		0		0,0	36,1					6,6
"Yulchi YUlduz"	chor-k	162,9	127,5	127, 5			7,8	0,9	0,0	6,9		1, 5		0,0	136,8					26,1
Gulsara	chor-k	35,8	28,5	28,5			3,3	0,0	0,0	3,3		0		0,0	31,8					4,0
Ulugbek Jurabek YAxyo	chor-k	102,1	69,8	69,8			3,2	1,1	0,0	2,1		1		0,0	74,0					28,1
Ishonch Nadejda (parranda)	chor-k	54,1	46,1	46,1			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	46,1					8,0
Nurafshon CHorvo molari (chorva)	chor-k	45,9	36,5	36,5			0,0	0,0	0,0	0,0		0, 2 2		0,0	36,8					9,1
Oydinkul zamini (parranda)	chor-k	58,3	32,7	32,7			0,0	0,0	0,0	0,0		0		0,0	32,7					25,6
Kosim	Bog-k	30,5	0,2	0,2			25, 1	15, 0	10, 0	0,0		0		0,0	25,3					5,2
Xudud jami		2862,9	2169,6	2169 ,6			211 ,2	66, 1	40, 6	10 4,4		8, 9		0,8	2390, 4					478,8

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, fermer xo'jaliklari asosan, paxta-g'allachilik va bog'dorchilikka ixtisoslashgan bo'lib, ularning umumiy soni 46 tani, shu jumladan paxta-g'allachilik yo'nalishiga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari soni 39 tani, chorvachilik yo'nalishida 6 ta, bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 1 ta ni tashkil etadi. Jami fermer xo'jaliklariga biriktirib byerilgan yerlar maydoni 2862.9 gektarni tashkil qilmoqda. Fermer xo'jaliklariga biriktirib byerilgan jami xaydalma yerlar maydoni 2390.4 gektarni, jami qishloq xo'jalik yer turlari esa, 2169.6 gektarni tashkil etadi. Shu jumladan ko'p yillik daraxtzorlarning umumiy maydoni 211.2 gektarni, bundan 10 gektarni bog'zorlar, 4 gektarni uzumzorlar, 6.6 ga ni tyerakzorlar, 61 gektarni esa, tutzorlar maydoni tashkil etadi.

I.4. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari tavsifi

Oxunboboyev massivida asosiy ixtisoslik paxtachilik bo'lgani sababli irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ayniqsa kanallar, zovurlar, ariqlar va yopiq drenajlardan keng foydalaniladi. Meliorativ shahobchalardan biri Amu – Buxoro kanali hisoblanadi. Ariqlarning suv o'tkazish imkoniyati yuqori darajada yaxshilangan. Yer osti suvlarining sathi 2-3 metr chuqurlikni tashkil etadi. Qabul qilingan sug'orish tizimi bu asosan egatlab sug'orishdir. Sug'orishning bunday usuli hozir ham qo'llanib kelinmoqda.

1.5. Aholi yashash joylari tavsifi.

Massivda aholi yashash joylariga qishloqlar kiradi. Massivdagi qishloqlar 13 tani tashkil etadi(5-jadval). Har bir qishloq joylashish o'rni va obodonlashtirilganligi va muxandislik jihozlanishi jihatidan bir - biridan farq qiladi. Massiv hududidan asosiy magistral yo'l o'tgan bo'lib, bu yo'l qishloqlarni bir - biri bilan bog'lab turadi. Massivda mavjud aholi yashash joylariga qishloqlar kiradi. Massivdagi har bir qishloq oila soni markaziy qishloqgacha bo'lgan masofasi aholi sonining mehnatga yaroqliligiga qarab farqlanadi.

Massivda aholi yashash joylari va aholi soni haqida ma'lumot

№	QFY va MFY nomi	Xo'jalik lar soni	Oilalar soni	Jami aholi soni
1.	Qatag'an MFY			
	YUqori qatag'an	175	234	1130
	Saripanja	67	73	235
	Uzro	123	137	708
	Tagalak	73	78	282
	Komde	62	64	203
	Jami	500	586	2558
2.	Ponob MFY			
	Tongotar	64	66	258
	Regdamin	8	8	43
	Arabsaroy	120	123	500
	Xurram	86	90	368
	Ponob	156	167	634
	Yangi hayot	126	132	479
	jami	560	586	2282
3.	Nayman MFY			
	Taliqulux	253	272	980
	Xargush Nayman	107	130	523
	Kichik Saroy	93	118	510
	SHofayoz	166	170	622
	Registonak	124	132	527
	jami	743	822	3162
4.	Xargush MFY			
	Xargush shaharchasi	487	663	2506
	jami	487	663	2506
	Xargush QFY bo'yicha jami	2290	2657	10508

I.6. Dehqonchilik tavsifi

Dehqonchilikka asosan massiv hududida etishtiriladigan qishloq xo'jalik maxsulotlari hosildorligiga maxsulot hajmiga, turiga naviga katta e'tibor byeriladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borishda dehqonchilik tizimi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning tarkibi, mohiyati mazkur hududning tabiiy – sharoitlari bilan bog'liq. SHu bilan birga uning asosiy qismlari dehqonchilik olib boriladigan massiv uchun iqlimi, iqtisodiy, ekologik sharoitlari

bilan belgilanadi. Dehqonchilikda etishtirilayotgan ekinlarga o'g'it solish, begona o'tlarini yo'qotish, tuproqqa har xil mexanizm va moslamalar bilan ishlov berish hisobiga tuproq unumdorligini qayta tiklab boradi. Massivda sug'orib dehqonchilik qilishda o'simlikning yashash sharoitlarini yaxshilashda tuproq xossalari, unumdorligiga va almashlab ekish qonuniga katta e'tibor byeriladi. Massivda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatining 2012 yil ma'lumotlari bo'yicha taxlili shuni ko'rsatadiki, asosiy dehqonchilik tarmog'i paxtachilik va g'allachilik hisoblangani holda, bog'dorchilik, pillachilik va sutchilik ham mavjud bo'lib bu tarmoqlar ham rivojlanmoqda. Fermer xo'jaliklarida etishtiriladigan qishloq xo'jalik ekinlari tarkibi tavsifi 6-jadvalda keltirilgan.

6- jadval

Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlari tarkibi

t/r	Ekinlar turi	Ekin maydonlari, ga	SHu jumladan, % hisobida	Hosildor ligi ts/ga	YAlpi mahsulot
1.	Paxta	515	33.60	29	149.35
2.	Bug'doy Don Somon	314	20.4	36 30	1130.4 942
3.	Beda Birinchi yili Keyingi yillar	45 22 23	3 1 1.6	40 100	
4	Arpa: Doni samoni	15	0.9	30 25	45 37.5
5	Sabzavot	12	0.78	140	168
6	Poliz	11	0.71	210	231
7	Makkajo`xori doni	24	1.5	50	120
8	Kartoshka	13	0,84	100	1300
9	Bog`lar	10	0.6	40	40
10	Uzumzorlar	4	0.2	45	18
11	YAylovlar	523	34.1	5	261.5
	Jami	1533.0	100.0		

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, haydalma yerlarda paxta ekini bilan band maydon 515 ga bo'lib, umumiy ekin maydonlarining 33.6 %ini tashkil qiladi. Don

maydonlari esa, umumiy ekin maydonlarining 314 gektarini yoki 20.4 % ini tashkil etadi. Yem-xashak ekinlari ekilgan maydon umumiy ekin maydonining 3,86 % ini, ya`ni 76 gektarini tashkil etadi.

Ma`lumki, mavjud fermer xo`jaliklarining 1 tasi chorvachilikka ixtisoslashtirilgan bo`lib, massivda chorva mollari ham parvarish qilinadi. Massiv hududidagi chorvachilik tavsifi quyidagi 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Chorva mollari tarkibi va bosh soni

T.r	Chorva mollari turlari va guruhlari	Bosh soni	Umumiy bosh soniga nisbatan % hisobida
1	Qora mollari, shu jumladan: - sigirlar - buqalar - g`unajjinlar - buzoqlar	329 145 10 70 104	100 44 3 21.2 31.8

Umumiy qora mollar soni 329 boshni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishni tahlil qilishda ekin maydonlarining miqdori bilan birga etishtirilgan mahsulotning miqdori, hosildorlik ko`rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi 8-jadvalda dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan.

8- jadval

Qishloq xo`jalik mahsulotlari

T/r	Ekinlar turi	Maydoni, ga	Hosildorligi, ts	YAlpi mahsulot hajmi, t
1	Paxta	515	29	14935
2	Bug`doy: doni somon	314	36 30	11304 942
3	Sabzavot	12	140	1680
4	Kartoshka	13	100	1300
5	Em-xashak ekinlari: makkajo`xori: doni poyasi beda	24 13 45	50 200 76	1200 2600 3420
Jami		939		

Fermer xo'jaliklarida 2013 yil 1 yanvargacha 3000 ta mehnatga qobiliyatli kishi mavjud bo'lgan. Shundani 1756 kishi to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida qatnashgan. 1804 kishi esa boshqa ishlar bilan band bo'lgan. Massivda jami qishloq xo'jaligi yerlari maydoni 1537 gektarni, Shundani xaydalma yer maydoni 939 gektarni tashkil etadi yoki har bir mehnatga qobiliyatli odamga o'rtacha 0.51 ga foydalaniladigan qishloq xo'jaligi yer maydoni, 0,31 ga haydalma yer maydoni to'g'ri keladi.

Massivda fermer xo'jaliklariga biriktirilgan bog'dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari ham mavjud bo'lib, bog'dorchilik maydonlari va boshqa qishloq xo'jalik yerlaridan olinayotgan mahsulotlar miqdori 9-jadvalda keltirilgan.

9- jadval

Qishloq xo'jalik yer turlari tarkibi, hosildorligi va yalpi mahsuloti

T/r	Qishloq xo'jalik yer turlari	Maydoni, ga	Xosildorligi, ts/ga	YAlpi mahsulot, t
1.	bog`	10	40	400
2.	uzumzor	4.0	45	180
3.	tutzor	61	50	30.5

1.7. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Massivning ishlab chiqarish faoliyatini baholash uchun asosan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish lozim.

10-jadval

Sotiladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymati

t/r	Qishloq xo'jalik mahsulotlari nomi	Miqdori, tonna	O'lchov birligi bahosi, mingso'm	Umumiy bahosi, ming so'm	Sotiladigan mahsulotlar qiymati, ming so'm
1	2	3	4	5	6
1	Paxta	1260	500	630000	630000
2	Bug`doy: doni somoni	1160.4 895	170 28	197268 25060	197268 -
3	makkajo`xori: doni poyasi	120 406	200 75	24000 30450	24000 -
4	Beda	266	100	26600	-
5	Meva	68	200	136000	136000
6	Uzum	45	200	900	900

7	Sabzavot	147	350	73500	73500
8	Kartoshka	94	900	84600	84600
9	Sut	174	1000	174000	174000
10	Go`sht	13.16	11000	144760	144760
11	Pilla	3.521	2700	9506.7	9506.7
12	CHorvachilik	0.77	3000	2310	2310
	Jami				1596874.7

11- jadval

Massivning asosiy iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

t/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Miqdori
1.	YAlpi mahsulot qiymati SHu jumladan: Dehqonchilik CHorvachilik	Ming so'm Ming so'm Ming so'm	1656906.7 1596874.7 330576.0
2.	Ishlab chiqarish xarajatlari Sof daromad Rentabellik	Ming so'm Ming so'm %	1019373,7 304488,3 30.1

11-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda rentabellik darajasi 30.1 % tashkil etadi.

2012 yil yakunlari bo'yicha fermer xo'jaliklarida etishtirilgan maxsulotning umumiy qiymati 1656906.7 ming so'mni, ishlab chiqarish xarajatlari 1019373,7 ming so'mni, sof daromad 304488,3ming so'mni va samaradorlik ko'rsatkichi 20,5 % ni tashkil etgan.

II.BOB. MASSIVDA YER HISOBINI YURITISH

2.1. YER HISOBINING MAZMUNI.

Yer xisobi davlat kadastrining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Yer hisobining asosiy vazifasi mamlakat yer fondining, yer toifalari va turlari, yerlarning foydalanish maqsadi hamda tarmoqlar bo`yicha bo`linishining aniq hisobini olib borishdan iborat. Uni olib borishning o`ziga xos xususiyati bor. Bu xususiyat yer maydonlarining ishlab chikarish vositasi sifatidagi xususiyati bilan bog`liq. Xalq xo`jaligi tarmoqlarida yer turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunday ekan, uning hisobini yuritish amalga oshiriladi. Yer, uy-joy binolarini, sanoat, qishloq xo`jaligi va o`rmon xo`jaligi, transport korxonalari, madaniyat muassalari, saglikni saklash maskanlari va boshqalarni joylashish urni sifatida hisobga olinadi.

Yerlarni hisob qilishda ishlab chi`g`rishning turli tarmoqlarida bir tomondan, umumiylik mavjud, ikkinchi tomondan o`ziga xos xususiyatlar ham mavjuddir. Bu xol ishlab chikarishning turli tarmoqlarida va inson faoliyatining boshqa soxalarida yerning tutgan urni bilan bog`liqdir. Hamma joyda yer kenglik asosi sifatida hisobga olinadi. SHu sababli ham u eng avvalo, uz o`lchamlari va kenglikdagi joylashuvi bilan xarakterlanadi. U yoki bu ishlab chikarish korxonasini joylashtirish va kurish uchun ushbu maqsad uchun byerilgan yer maydoni to`g`risidagi ma`lumotga ega bo`lishi zarur. Ammo teng o`lchamdagi maydon bitta yoki bir necha aloxida joylashgan uchastkalardan tashkil bo`lishi mumkin. SHu sababli ham ishlab chikarishni to`g`ri tashkil etish uchun korxonaga ajratilgan yerning keglik holati to`g`risidagi ma`lumotga ega bo`lishi zarur.

Ishlab chikarishning ba`zi tarmoqlarida (qishloq xo`jaligi, urmon xo`jaligi) yerlarni kenglik asosi sifatida hisob qilishdan tashkari, uni asosiy ishlab chikarish vositasi sifatida ham hisob qilish zarur. Bu esa uz navbatida yerlardan foydalanish va ularning sifat holati to`g`risidagi maxsus ma`lumotlar olish zaruriyatini

tugdiradi. Bunga birinchi navbatda qishloq xo'jaligi yerlarining tarkibi va sifati to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi.

Yer hisobida yerlarning miqdor jixatidan hisobini yuritish hamda sifat tavsifni berish uchun natural ulchovlar kullaniladi. Hisob xalq xo'jaligini rejalashtirish mamalakat yer fondidan oqilona va samarali foydalanish uchun hamda muxofaza qilish uchun zarur bo'lgan yerlarning miqdori, sifati va xo'jalik jixatidan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni olish qayta ishlov berish, taxlil qilish va saklashga yunaltirilgan. U muxim ahamiyatga ega. Uning ma'lumotlar mazmuni eng avvalo qishloq xo'jaligi zaruriyati buyicha aniqlanadi. Negaki, yer xalq xo'jaligi aloxida tarmoqlarida turli maqsadlarda foydalanilar ekan, shu sababli ham yer hisobiga turlicha talablar quyiladi. Anik vazifalarga va asosiy maqsadlarga karab yer hisobi turlicha rol' uynashi mumkin. Ba'zan u davlat va ba'zan ma'lum bir tarmoq buyicha tadbir sifatida gavdalanadi. Umumdavlat vazifalarini bajarishda (xalq xo'jaligini rejalashtirish mamlakat yer fondidan samarali foydalanish va uni muxofaza qilish va x.k.) u davlat tadbiri sifatida namoyon buladi. Bu holda uning vazifasi, mazmuni hamda yuritish tartibi davlat tomonidan aniqlanadi. Davlat quyidagilarni belgilaydi: yer hisobi informatsiyalari va ularni olish usullarini, hisob-kitob va hisobot xujjatlarining shakli va mazmunini, uni amalga oshiruvchi organlar va odamlarning yerlarni hisob qilishni yuritib borishni belgilaydi.

Hisob yurtishning belgilangan tartibi mamalakatni barcha xududlari uchun majburiydir. Davlat hisobining ob'ekti bo'lib davlat yagona yer fondi xizmat qiladi. Xalq xo'jaligining u yoki bu tarmog'i masalalarini muvaffakiyatli xal qilish maqsadida ushbu tarmoq ustidan raxbarlik qilayotgan idoraga ushbu tarmoq korxonalari foydalanaetgan yerlari to'g'risida ma'lumotlar zarur. Masalan: urmon xo'jaligi korxonalari tomonidan urmon xo'jaligini oqilona yuritish uchun ular ixtiyerida foydalanilaetgan, urmon bilan koplangan xududning holati va foydalanishi to'g'risida anik ma'lumotlar zarur.

SHaxar xokimiyati va uni organlariga shaxar chegarasidagi yerlarning holati va xakikiy foydalanilaetganligi to'g'risida ma'lumotlar zarur. SHu sababli ham

yerlarning davlat hisobi bilan bir katorda tarmoqli hisobini yuritishga ham zaruriyat tugiladi. Uning ob`ekti bo`lib ma`lum bir vazirlik (idora) ixtiyeridagi yerlar xizmat qiladi. Ushbu hisob turlari o`rtasida ma`lum bir aloqa bo`lishi zarur.

Tarmoq hisobi davlat hisobining mazmuni va talablarini hisobga olgan holda tuziladi. U uz tarkibida ushbu tarmoq ishlab chikarishni buyicha davlat hisobi uchun zarur bo`lgan barcha ma`lumotlarni shuningdek anik bir tarmoq masalalarni xal qilish uchun zarur bo`lgan o`ziga xos ma`lumotlarni oladi. SHuning uchun ham yerlarning tarmoq hisobini yuritish tartibini urnatishda ushbu masalalar yerlarni davlat hisobini amalga oshirish funktsiyasi yuklangan organlar bilan kelishilgan buladi.

Yer hisobi davlat tadbiri sifatida yer kadastrining tarkibiy qismidir. Yerlarning davlat hisobi sovet davlatining birinchi kunadan boshlab yuritila boshlangan, hamda u yerlarni miqdor va sifat hisobini uzida jamlagani holda ma`lum tizimni tashkil etadi. Ishlab chikarishning rivojlanishi bilan yerlarning davlat hisobi tizimi ham rivojlangan va takomillashgan. Uning rivojlanishdagi konuniy xoli Shundani iboratki, doimiy ravishda yer sharoitlar, yerdan foydalanish va yer turlari maydonlarini aniqlash, anikligi oshavyergan yerlarning sifat tavsifi kengaya borgan.

Yerning mavjud holati va foydalanishi buyicha hisob ishlari yukori sifatli plan-xarita matyeriallari asosida olib boriladi. Barcha yer fondi ma`muriy -xududiy birliklar buyicha hisob qilinadi. Yer turlarining sifati, tuproq katlami, tuproqning ozuka moddalari bilan ta`minlanganligi, rel`efi, tabiiy ut larning holati, meliorativ holati va boshqalar buyicha aniqlanadi. Yer hisobi yagona uslubiyat buyicha aniqlanadi. Bu esa uz navbatida hisobga olinadigan yer toifalari va mamlakatning aloxida mintakalari buyicha ma`lumotlarni takkoslashni ta`minlaydi. SHu maqsadlarda yer va yer turlarining yagona klassifikatsiyasi yer hisobi informatsiyasini olish qayta ishlash va guruxlashning yagona tizimi kullaniladi.

Yer hisobining ob`ekti yagona davlat yer fondi bo`lganligi sababli kimning ixtiyerida bo`lishidan, ushbu vaktida bu yer maydonlari foydalanilayaptimi yoki

yo`qmi, bulardan kat`iy nazar ushbu davlat yer fondiga kiruvchi barcha yerlar hisob qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, yagona davlat yer fondining barcha yerlarini hisob kamrab olishi kyerak. Bu esa umumiy maydonni, uni tarkibi va yer toifalari buyicha taksimlanishini to`g`ri aniqlash imkonini beradi

Yer hisobini to`g`ri tashkil etishning muxim sharti - uni o`z vaqtida uzluksiz yuritishdir. Bu esa yer hisobi ma`lumotlarini shu davr talabi darajasida ushlab turishga imkon beradi Bu printsip yerning holatida va foydalanishida ruy byeradigan miqdoriy va sifat o`zgarishlarni sistemali tarzda hisob qilib borishga zaruriyat tugdiradi. Yerlarni hisob qilishda barcha o`zgarishlar avvalambor naturda (joyda) qayt qilingandan sunggina aniqlash va qayd qilish zarur. Yer hisobi ma`lumotlarini faqatgina tekst xujjatlarida qayd qilibgina kolmaystdan balki plan-xarita matyeriallarida ham yeritish zarur. Sonli informatsiyalarni turli grafiklar tarzida (grafiklar, diagrammalar) kursatish zarur. Yer hisobi va yer hisoboti xujjatlarni o`rtasidagi mantikiy jixatdan doimiy bog`liqlik bo`lishi kyerak.

Yer hisobini o`tkazishda imkoni boricha kamrok xarajat talab qiladigan ma`lumotlarni olish va qayta ishlash usullari va texnik vositalaridan foydalanish zarur. Komp'yutyerlarni va tasvirga olish hamda kuzatuvchining ancha takomillashgan usullarini kullash mamlakat yer fondi hisobini to`g`ri va uz vaktida amalga oshirishga imkon beradi Bu esa uz navbatida davlat yer kadastrini muvaffakiyatli yuritishga zamin buladi.

Yerlarni inventarizatsiya (yo`qlama) qilish yer hisobining tarkibiy qismi sifatida mavjud bo`lib, tezkor hisob tadbiridir. Bu ish joyidagi va kadastr xujjatlaridagi mavjud ma`lumotlarni bir-birlariga mos kelishini aniqlash maqsadida, zaruriyatga karab o`tkaziladi. buning natijasida olingan kadastr ma`lumotlari birinchi navbatda hisob ma`lumotlariga tushriladi. Yerlarning yo`qlama ishlarini o`tkazishda amaliyda mavjud bo`lgan plan-xarita va boshqa matyeriallardan foydalaniladi. Ma`lumotlarni joyga mos kelishini aniqlash yerlarning kuzatuvida amalga oshiriladi. Bunda maxsus ravishda tasvirga olish, koidaga binoan o`tkazilmaydi.

2.2. YER HISOBINING TURLARI VA O`TKAZISH USULLARI.

Yer hisobi ishlari uz vazifasiga, mazmuniga va xususiyatiga karab yer kadastr singari asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bulinadi. Ikkala hisob turlari uzaro bog`liqdir, hamda yagona yer hisobi jarayonining ma`lum bosqichlarini namoyon qiladi.

Asosiy hisobning vazifalari quyidagilar:

- 1) hisob qilinadigan xudud uchun barcha mavjud plan-xarita matyeriallarini olish, tizimga solish va taxlil qilish;
- 2) zarur bo`lgan birlamchi ma`lumotlar va plan-xarita matyeriallarini olish maqsadida tasvirga olish hamda kuzatuv buyicha dala kidiruv ishlarini o`tkazish;
- 3) hisob qilinadigan barcha yerlar o`lchamlarini, sifat holatini, taksimlanishni va fodylanish holatini aniqlash;
- 4) maxsus yer hisobi planlarini tayyorlash va yer hisobi tekst xujjatlariga birlamchi ezuvlarni tushirish;
- 5) yer fondi tarkibini yer toifalari, yer egaliklari, yerdan foydlanishlar yer turlari buyicha aniqlash va ma`muriy birliklar (tuman, viloyat, respublika) sifat jixatdan tavsiflash.

Birlamchi hisob tasvirga olish va kuzatuv planlar tuzish maydonlarni hisoblash bilan bog`liq. Hisob qilinaetgan yerlarning miqdori va sifati to`g`risida tula xar tomonlama ma`lumotlar olish uchun yukori malakali mutaxassislar tomnidan o`tkaziladi. U quyidagi ish bosqichlarini uz ichiga oladi: tayyorgarlik, dala, hisob natijalarini rasmiylashtirish. Tayyorgarlik ishlari jarayonida hisob qilinadigan xududdagi barcha yerlarning miqdori va sifati to`g`risidagi ma`lumotlarni uz ichiga oladigan barcha mavjud matyeriallar va xujjatlar tuplanadi. Tuplangan matyeriallar uz moxiyatiga karab guruxlanadi, yer hisobi uchun yarokliligi nuktai nazaridan taxlil qilinadi va baholanadi. Plan-xarita matyeriallarini xo`jaliklararo va ichki xo`jalik yer tuzish loyixalari, ma`lumotloarir, yer egaligi (yerdan foydalanish) ni ro`yxat qilish xujjatlari tuplanadi va o`rganiladi. Shundani sung olinadigan matyeriallarning sifati va anikligiga karab hisob uchun ulardan foydalanish imkoniyatlari to`g`risidagi

masala xal qilinadi. Agarda matyeriallar eskirga bulsa, joydagi holatni yeritmasa, bunday holatda -planxaritalarni taxrir qilish yoki Yangidan tasvirga olish va kuzatuv ishlari buyicha ishlar belgilanadi, ya`ni Yangi bosqich ishlariga dastur aniqlanadi.

Dala-kidiruv ishlari asson naturada, ya`ni joyda zaruriy yer hisobi ma`lumotlarini belgilash buyicha maxsus ishlarni uz ichiga oladi. Bularga, tasvirga olish, kuzatuv, mavjud plan-xarita matyeriallarni taxrir qilish kiradi.

Dala ishlarini o`tkazgandan sung maxsus talbirlar-tuproq analizi, yer hisobi ma`lumotlarini rasmiylashtirish, maydonlarni o`lchash va boglash, maxsus hisob-plan xujjatlarini tuzish amalga oshiriladi. SHunday tarzda olingan ma`lumotlar belgilangan tartibda kurib chiqiladi va tasdiklanadi. Shundan sunggina uning birlamchi ma`lumotlar sifatida kabal qilinadi va tekst xujjatlariga eziladi.

Birlamchi hisobni o`tkazish paytida aniklangan va qayd qilingan ma`lumotlar vakt utishi bilan xakikiy holatga mos kelmay koladi. Bu xol shu bilan tushuntiralidaki, yerlardan xo`jalik faoliyati jarayonida foydlanish natijasida ular tarkibida va taksimlanishda ma`lum o`zgarishlar sodir buladi. Masalan, oxirgi yillarda davlat va jamoat maqsadlari uchun xar yili necha un ming hektar yer ajratiladi. Yer maydonlarida turli xil agrotexnik va meliorativ tadbirlarning muvaffakiyatli olib borilishi natijasida yer turlarining sifat holati o`zgaradi. Xatto tomorka yerlarida ham katta aniqliklar o`tkazilishi talab qilinadi.

Shuning uchun ham yer kadastri xujjatlariga tushirilgan boshlang`ich ma`lumotlar eskiradi, natijada ularni sistemali tarzda yangilab turish zarur buladi. Bu ea joriy hisob asosida amalga oshiriladi. Joriy hisobning vazifasiga quyidagilar kiradi: birinchidan, yerlarning miqdori, sifati taksimlanmishida yuz byergan o`zgarishlarni aniqlash bilan cheklanib kolmasdan, shu bilan birga, ushbu o`zgarishlarning konuniyligini ham aniqlash zarur. Joriy hisob ishlari mazmunining farqi Shundan iboratki, uni o`tkazishda asosiy hisob materiallaridan foydlaniladi va faqatgina yerning holati hamda foydlanishdagi o`zgarishlarigina o`lchanadi.

Bunda qaytadan tasvirga olish ishlari bajarilmaydi va plan-xarita matyeriallari tayyorlanmaydi. Shunday qilib, joriy hisob birlamchi hisobdan ish xajmi va xaraktyeri buyicha farq qiladi. Uz xaraktyeri buyicha yuz byeradigan o`zgarishlar quyidagi turlarda bo`lishi mumkin: yer turlarining transformatsiyasi (bir turdan ikkinchisiga utishi) natijasida yer turlarining maydonlarida; tuproqlarning sifat holatlarida; yer ajratib olish va yer ajratib berish natijasida yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) va boshqa hisob birliklari o`lchamlarida; yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) aloxida toifalari yer maydonlarida; asosiy yer toifalari maydonlarida; ma`muriy birliklar xududining maydonlarida.

Asosiy va joriy hisoblar o`rtasida aloqa mavjud. Birinchisi ikkinchisini o`tkazishga zamin yaratadi, uning ta`sir doirasini aniklaydi; ikkinchisi esa birinchisining ma`lumotlarini talab darajasida tutib turadi. Birlamchi va joriy hisoblarda miqdor kursatkichlar bilan bir katorda sifat kursatkichlar ham yeritiladi.

Yer hisobini to`g`ri yulga quyishda tasvirga olish katta ahamiyat kasb etadi. Faqat tasvirga olish va shu asosda olingan xaritalardan foydalanish asosida mamlakat yer fondini mumkin kadar to`g`ri hisob qilishga imkon beradi Tasvirga olish matyeriallari yer egaliklari (yerdan foydalanishlar) maydonlari, yer turlarining tarkibi to`g`risidagi anik ma`lumotlar olish imkonini beradi Bu ma`lumotlar yerlarni sifatini hisob qilish uchun zarurdir.

Tasvirga olish asosan yer ustida va ayerofototasvirga olishga bulinadi. Xozirgi paytda ayerofototasvirga olish yerlarni davlat hisobida tasvirga olishning asosiy turidir. U mamlakat yer fondini, jumladan, xar bir yer egaligi (yerdan foydalanishlar) yerlarning holati va foydalanish o`lchamlari to`g`risidagi tez va nisbatan arzon zaruriy ma`lumotlar olishga imkon beradi Uning ma`lumotlari va yerdan foydalanishni hisobga olish uchun zarur bo`lgan joyning elementlari yer ustida tasvirga olishga nisbatan kuprok yeritiladi. Masalan, ayerofototasvir matyeriallarida faqatgina yer turlarining chegaralari, yeroziyaning rivojlanish darajasi va boshqalar ham qayd qilinadi. Ayerofototasvirlar ayniksa kichik-kichik yer uchastkalariga ega bo`lgan tomorka yerlarini hisob qilishda juda kimmatdir.

Ushbu matyeriallar asosida yer hisobini xozirgi davr talabi darajasida ushlab turish mumkin. Keyingi yillarda yer hisobiga fazodan tasvirga olish matyeriallari ham kirib kelmokdagi, bu yakin istikbolda muxim ahamiyatga ega bo`lgan tadbirlardan biriga aylanadi.

Hisob ma`lumotlarini olishning juda muxim usullaridan biri bu kuzatuvdir. Davlat yer hisobida o`tkaziladigan kuzatuv ishining vazifasiga asosan yer turlarining xakikiy holatini va foydalanishni aniqlash, shuningdek, ularni qishloq xo`jaligida imkon boricha jadal foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdir. Kuzatuvlar asosan ikki turga bulinadi: maxsus va agroxo`jalik. Maxsus kuzatuvlarga tuproq, geobotanik va meliorativ kuzatulari kiradi. Agroxo`jalik kuzatuvida joyida xar bir kontur va yer turining tashki belgilari va holati buyicha uning sifati hamda kelgusida imkon boricha oqilona foydalanish yullari aniqlanadi.

Birlamchi ma`lumotlar olish va yerdan foydalanishni nazorat qilish uchun ekin maydonlari va tomorka yerlarini obmyer (ulchov) ishlari o`tkaziladi. Ulchov asosan yoppasiga va tanlangan turlarga bulinadi. YOppasiga ulchovda barcha maydonlar kamrab olinadi, tanlanganda esa xududning bir qismigina o`lchanadi.

2.3. MASSIVDAGI YER eGALIKLARI VA YERDAN FOYDALANUVCHILAR YERLARININNG HISOBI

Massivda olib borilgan yer hisobi natijalariga ko`ra massivning umumiy yer maydoni 5378 gektarni tashkil qiladi. O`z navbatida ushbu maydon quyidagi yer turlari va toifalari bo`yicha bulinadi:

- Sug`oriladigan ekin yeri – 1 691 gektar;
- Bog`lar – 53 gektar;
- Uzumzorlar – 27 gektar;
- Tutzorlar – 44 gektar;
- Tomorqa yerlari(aholi yashash uylari bilan birga) – 2480 gektar;
- O`rmon fondi yerlari – 5 gektar;
- Suv ostidagi yerlar(ariqlar, zovurlar va boshqalar) – 258 gektar;

➤ Boshqa yerlar – 304 gektar.

Sugʻoriladigan maydonlar uz navbatida massivdagi 22 ta fermer xoʻjaligiga foydalanish uchun byerilgan. Fermer xoʻjaliklarining yerlaridagi ekin turlarining joylashishi hisobi olib borilganda quyidagilar maʼlum boʻldi. Yerni roʻyxat qilish yer kadastrining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi bu maʼlum bir yer uchastkasiga mulkdorlik, egalik qilish yoki foydalanish xuquqini rasmiylashtirish va davlat mikesida kabul qilingan yagona shakldagi xujjatlarda aks ettirish buyicha huquqiy tadbirdir. U yer konunlarida kuzda tutilgan xollardan tashkari yerga davlat mulkchiligini taʼminlaydi va yerni muxofaza qilishga yunaltirilgan.

Yer roʻyxati maʼlumotlari huquqiy kuchga ega. Albatta yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni roʻyxat qilish ishchi tizim sifatida birdagiga shakllanmagan. U oldingi Sovet davlatining birinchi davrlaridek oʻtkazilgan hamda boshlangich vaktidan yerdan foydalanish xuquqini rasmiylashtirish hamda yerga davlat mulkchiligini taʼminlashga yunaltirilgan. SHu bilan birga uning vazifasiga yerning huquqiy va xoʻjalik holatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni tuplash, sistemali tarzda saklash va Yangilab turish kirgan.

Yerga egalik qilish yerdan foydalanishni roʻyxat qilish yer hisobi bilan uzviy bogʻlangan holda olib boriladi.

Yerga egalik qilish (yerdan foydalanish)ni roʻyxat qilish maʼlum bir yer uchastkasiga egalik qilish (yer uchastkalaridan foydalanish) xuquqini rasmiylashtirish va yer egaligi (yerdan foydalanish) toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni kabul qilingan xujjatlarda qayd qilish bilan bogʻliq masalalarni oʻz ichiga oladi. U birinchi navbatda yerning huquqiy holati toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan iborat. Ammo yerdan foydalanish maʼlum bir maqsadga yunaltirilganligi hamda maʼlum xudud va anik subʼekt bilan bogʻliq boʻlganligi sababli u uz ichiga yer uchastkalarining xoʻjalik holati, joylashgan urni va yer egaligi (yerdan foydalanish)ning oʻlchamlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini ham oladi.

Yer uchastkasini yer egaligi (yerdan foydalanuvchiga) berish toʻgʻrisidagi vakolatli davlat organlarining karori hamda yer tuzish loyixasini joyga kuchirish

va uchastka chegaralarini joyda maxkamlash to'g'risidagi dalolatnoma yer egaligi (yerdan foydalanuvchi)ni ro'yxat qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Davlat ro'yxatida rasmiylashtirilganidan sung yer egasi (yerdan foydalanuvchi)ga yerga egalik qilish (yerdan foydalanish) xuquqini byeruvchi xujjat topshiriladi.

Yer uchastkalarini egalik qilish va foydalanish uchun berish yer ajratish tarikasida amalga oshiriladi. Yer uchastkalarini ajratib berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, viloyatlar, Toshkent shaxri, tumanlar, shaxarlar xokimlari tomonidan konun xujjatlarida beggilab quyilgan tartibda amalga oshiriladi. egalikdagi yoki foydalanishdagi yer uchastkasini boshqa shaxslarga berish shu uchastka belgilangan tartibda olib quyilganidan keyingina amalga oshiriladi.

Sanoat korxonolari temir yo'llar va avtomobil yu'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral kuvurlar kurish uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bulmagan boshqa exti'jlar uchun qishloq xo'jaligiga muljallanmagan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroksiz bo'lgan yerlar exud qishloq xo'jaligining sifati emon bo'lgan yerlari byeriladi. Mazkur maqsadlar uchun urmon fondiga karashli yerlardan yer uchastkalari asosan urmon bilan koplanmagan maydonlar yoki butazorlar va arzon baho usimliklar bilan koplangan maydonlar hisobidan byeriladi.

Yer egasiga (yerdan foydalanuvchiga) foydalanishga bitta yoki aloxida joylashgan yer uchastkalari berilishi mumkin. Bunda birinchi holatda ham ikkinchi holatda ham barcha yerlar yaxlit yerdan foydalanishni tashkil etadi, negaki yerdan foydalanish bitta sub'ektdan iborat. U ushbu barcha xududdan foydalanish buyicha ma'lum xuquq va majburiyatlarga ega. Yer egaligi (yerdan foydalanish) ro'yxat qilinadi, hamda u yer ro'yxati birligining asosini tashkil etadi. U egalik qilish (foydanish) xuquqining ob'ekti sifatida va xo'jalik ob'ekti sifatida yoki yer egaligi (yerdan foydalanuvchi)ning uzga faoliyati sifatida gavdalanadi hamda ma'lum aniqlikdagi joylashgan o'rni va o'lchamlari bilan xarakterlanadi.

Yer egaligi (yerdan foydalanuvchi) davlat tomonidan yerga egalik qilish (foydalanish) xuquqini tasdiklovchi xujjat oladi. Yerlardan foydalanish turlariga karab huquqiy rasmiylashtirish xujjatlari hamda yerdan foydalanishlarni ro`yxat qilish tartibi turlicha bo`lishi mumkin.

Yerdan foydalanish birlamchi va ikkilamchi bo`lishi mumkin. Agarda yerga egalik qilish (foydalanish)ga davlat organlari tomonidan berilgan bolsa, bunda yerdan foydalanish birlamchi hisoblanadi. Konunda belgilangan tartibda yerdan foydalanuvchilar uzlariga biriktirilgan yer uchastkalaridan boshqa yerdan foydalanuvchilar (kolxozchilar, xizmatchilar, ishchilar) ga berishlari mumkin. Bunday yerdan foydalanish ikkilamchi hisoblanadi. U kolxozchilar umumiy majlisi yoki kolxozchilar vaqillarining majlis karoriga asosan, boshqa yerdan foydalanuvchi yerlardan- ular ma'muriyatlarining karoriga asosan ajratiladi. Korxona muassasa va tashkilotlarga vaktinchalik foydalanishga yer uchastkalari birlamchi yerdan foydalanuvchining roziligi bilan "Yer kodeksi"da kursatilgan tartibda ajratiladi.

Yerga egalik qilish (yerdan foydalanish)ni ro`yxat qilish yerlardan foydalanish muddatlari buyicha amalga oshiriladi: muddatsiz va vaktinchalik (uzok muddatli va kiska muddatli). Muddati oldindan belgilanmagan foydalanish muddatsiz hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, u doimiy yerdan foydalanishdir. Bunday yerdan foydalanishlarga tuman xokimiyatlari tomonidan yerlardan doimiy foydalanish xuquqini byeruvchi Davlat dalolatnomalari byeriladi.

Yerdan muddatli foydalanish kiskacha muddatli - uchyilgacha va uzok muddatli - uch yildan un yilgacha bo`lishi mumkin. Ishlab chikarish xotijlari talab qilgan xollarda bu muddatlar vaktincha foydalanish muddatlaridan ortik bulmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan foydalanish muddatlarini uzaytirishana shu uchastkalarni byergan organlartomnidan amalga oshiriladi.

Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo`jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga yigirma besh yilgachamuddatga byerilishi mumkin.

Yer egaligi (yerdan foydalanish) davlat ro`yxatini amalga oshirish yerdan foydalanish toifalari buyicha belgilangan tartibda tuman va shahar xokimiyatlarida amalga oshiriladi. Xar bir yerdan foydalanish buyicha muddatsiz, uzok muddatli va kiska muddatli yerlar aloxida-aloxida ro`yxat qilinadi. Asosiy yer ro`yxati ma`lumotlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: yerdan foydalanish va yerdan foydalanuvchilarning nomi, foydalanish turi, joylashgan urni, foydalanish muddati, yer maydoni va yerdan foydalanish xuquqini byeruvchi xujjatning nomi, uning tartib rakami hamda yerdan foydalanuvchiga byerilgan vakti. Yerdan foydalanishning davlat ro`yxati tuman (shahar) Davlat yer kadastrı daftarinıng birinchi bulimida amalga oshiriladi.

Yer ro`yxati ma`lumotlari tumanning va aloxida yerdan foydalanuvchilarning boshqa kadastr xujjatlarida ham qayd qilinadi. Masalan, korxona, muassasa va tashkilotlarning yer kadastr kitobining birinchi bulimida tuman (shahar) Davlat yer kadastr daftarinıng birinchi bulimida qayd qilingan korxona, muassasa va tashkilotlarning asosiy yer ro`yxati ma`lumotlari keltiriladi. Kitobning beshinchi bulimida tomorka yerlarining maydonlari qayd qilinadi. Ular to`g`risida ma`lumotlar qishloq oksokollar. Kengashida yuritiladigan Xo`jalik kitobida ham qayd qilinadi.

Yer egaligi (yerdan foydalanish)ni ro`yxat qilish asosiy (birlamchi) va joriy (kundalik) turlarga bulinadi. Birlamchi ro`yxat qilishda Yangi yer egaliklari (yerdan foydalanish) ni rasmiylashtirish, yer ro`yxati xujjatlariga zarur ma`lumotlarni tushirish va tizimga keltirish buyicha ishlar amalga oshiriladi. Uni o`tkazish jarayonida yerdan foydalanish to`g`risida birlamchi ezuv tushiriladi. Keyinchalik, xo`jalik rivojlanishi va yerdan foydalanishning o`lchamlari va tarkibida u yoki bu kurinishdagi konuniy o`zgarishlar buladi, ya`ni yerlarning huquqiy holatini aniqlashga zarurat tugiladi. Masalan, davlat va jamoat zaruriyatlari uchun yer ajaratilishi natijasida yerdan foydalanishning umumiy yer maydoni, aloxida yerdan foydalanish turlarining maydonlari o`zgaradi. Bunday xol ayniksa yerdan vaktinchalik foydalanishda kup uchraydi. Ba`zi xollarda esa aksincha, yerdan foydalanuvchiga oldin undan olingan yer uchastkasi qaytarib

byeriladi, negaki, endi oldin ajratib byerilgan maqsadlar uchun yerdan foydalanishga extiej kolmagan. Bundan boshqa ham kator konuniy sabablar bo`lishi mumkin.

Yerdan foydalanishdagi bunday barcha konuniy o`zgarishlarni rasmiylashtirish va ushbu o`zgarishlarga hamda birlamchi ma`lumotlariga va xujjatlarga zaruriy anikliklar kiritish yerdan foydalanishning joriy ro`yxati tartibida amalga oshiriladi. SHu tarzda yer ro`yxati ma`lumotlari doimiy ravishda shu kun talabi darajasida ushlab turiladi.

2.4. YER HISOBINI YURITISHDA MEHNAT MUHOFAZASI

Albatta har qanday ishni bajarishda, ishning xususiyatidan qatiy nazar mehnat muhofazasiga amal qilish zarur.

Yer hisobini yuritish ishlarida ham mehnat muhofazasiga amal qilish eng asosiy talablardan biridir. CHunki insonning hayotiga xavf soluvchi holatlarni oldini olish, sabablarini o`rganish va tegishli chora-tadbirlarishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Bizga ma`lumki, yer baholash ishlarini o`tkazish jarayonida kadastr mutahassislari turli xil geodezik asboblardan foydalanadilar. Bundan tashqari yer hisobini yuritishning tarkibiy qismi hisoblangan hudud tafsilotlarini joyning o`zida borib o`rganishda bevosita transport vositalardan foydalanadilar. SHu jarayonlarda kadastr mutaxassislari mehnatni muhofazasini ta`minlash maqsadida quyidagilarga rioya qilishlari shart:

- Elektrli geodezik asboblardan foydalanganda, ularning sozligini va havfsizligini tekshirish va Shundani keyingina ishlatish.
- Tafsiloti o`rganilayotgan hududda yuqori kuchlanishli elektr liniyalari o`tgan bo`lsa, himoya zonalarini saqlagan holda ishlash;
- Joylarga borishda yo`l harakati qoidalariga rioya qilish.
- Bajariladigan ishning xususiyatidan va ish jarayonida kelib chiqadigan hayot uchun xavfli vaziyatlarda mehnat muhofazasiga rioya qilish.

III.BOB. MASSIVDA YER BAHOLASH ISHLARINI O`TKAZISH.

3.1. MASSIVDA TARQALGAN YER TURLARI VA TUPROQ XILLARI TAVSIFI

Massivda tarqalgan yer turlari va tuproq xillari tarkibini aniqlash eng muhim masalalardan biridir. Sababi massiv yerlaridagi tuproqlarning tarqalishi va ularning ichki xususiyatlarini bilmay turib massivda meliorativ tadbirlarni qo'llash va yerlarni baholash ishlarini o'tkazish mumkin emas. Bundan eng asosiy maqsad massivdagi xar xil tuproqlarning unumdorligini va qishloq xo'jalik usimliklarning hosildorligini kupaytirishdir. Bunda asosan "O'zdavyerloyiha " instituti va uning hududiy filial va boshqarmalari tomonidan tayyorlangan matyeriallarga tayanib ish olib boriladi. Bu matyeriallaraga quyidagilar kiradi: tuproq bonitirovka kartasi, sho'r tuproqlar kartogrammalari, tuproq "Eksplikatsiya"si va boshqa matyeriallar. Tuproqlar banitrovkasi kartasida tuproqlarning, tiplari, tipchalari, guruxlarini kursatish bilan bir katorda turli dalada xar xil tuproqlar xosildorligini ham aniq kursatiladi. Bu ma'lumotlar massiv fermerlari, dexqonlari, agranomlari, raxbarlari uchun anik yer tuproq tuzilishini va undan oqilona foydalanishni kursatadi va quyidagi amaliy ishlarda kullaniladi.

- Tuproqlarga ishlov berish
- Ug'itlash.
- Sug'orish va sho'rlanishni yuvish.
- Suv va shamol yerrozijasiga qarshi kurashish.
- Sizot suvlarining satxini va minyeralizatsiyasini pasaytirish.
- Almashlab ekishni joriy qilish.
- Ixota daraxtzorlarni tashkil qilish.
- Yerlarni narxini anikdash, baholash va xokazo.

Massivlarda eqiladigan yerlarning tuproq kartasi odatda 1:1000 masshtabda tuziladi. Tuproqlar kartasida aks etirgan tuproqlar tiplari, tipchalari, guruxlari, turlari xar xil ranglarda va shartli belgilar orkali ifodalanib, ular bir-biridan ajralib turadi va ob'ektiv holda tuproqlar koplanilib, o'zgarishini tasvirlaydi. Undan tashkari tuproq kartasida xar bir tuproq konturi aloxida shartli sanalar bilan ham

aks qilinadi. Bu ajratilgan tuproqlar konturlari tartib nomyeri orkali tuproqlar kartasida jadval singari yoki eksplikatsiya sifatida kursatiladi. Bu eksplikatsiyada xar bir ajratilgan tuproqlar guruxlariga aloxida, kiskacha ma`lumot byeriladi.

Bizga ma`lumki massivda tarqalagn yer turlari guruhleri va tuproq xillari massivning tuproq eksplikatsiyasida keltiriladi. (1-ilova)

Eksplikatsiyada xar bir ajratilgan tuproqlar guruxlariga aloxida, kiskacha ma`lumot byeriladi. Jumladan, eksplikatsiyada quyidagi ma`lumotlar, kursatkichlar yoki boshqacha aytganda, kartaning mazmunini tashkil qiluvchi tuproq qoplaminig birlikleri o`z aksini topadi:

- Genetik tipi, tipchalari, guruxleri.
- Sug`oriladigan vakti.
- Madaniylashtirilgan darajasi.
- Agroiirrigatsion gorizontning kalinligi.
- Mexanik tarkibi.
- SHo`rlanish va sho`rxoklanish darajasi.
- Sizot suvlarining chukurligi va minyeralizatsiyasi.
- Kumligi va toshlokdigi.
- Yerroziyaga uchraganlik darajasi.

Massivning tuproqlar eksplikatsiyasida keltirib o`tilgan ma`lumotlarni tahlil qiladigan bo`lsak, massiv morfologik jihatdan Zarafshon tuproq iklim okrugida joylashganligi o`z navbatida ushbu okrug 4 qismga bo`linganligi ko`ramiz.

Massivda tarqalgan tuproq xillari va ularning meliorativ holatlarini, maydoni va sho`rlanish darajalari bo`yicha tahlil qilsak massivda quyidagi asosiy tuproq guruhlari tarqalganini ko`ramiz:

Zarafshon daresining IIsoxili usti tyerrasasi katlamli allyuvial yotkiziklar.

Sug`oriladigan utloki tuproklar.

- Eskidan sug`oriladigan , o`rta madaniylashgan o`rta qumoqli kam sho`rlangan tuproqlar – 134 ga;
- Eskidan sug`oriladigan , o`rta madaniylashgan, engil qumoqli, o`rta

sho`rlangan tuproqlar – 253 ga;

- Eskidan sug`oriladigan, kam madaniylashgan, o`rta qumoqli, o`rta sho`rlangan tuproqlar – 303 ga
- Eskidan sug`oriladigan, kam madaniylashgan, engil qumoqli, kuchli sho`rlangan tuproqlar – 92 ga
- Yangi sug`oriladigan, o`rta madaniylashgan, ogir qumoq, kam sho`rlangan tuproqlar – 25 ga
- Yangi sug`oriladigan, kam madaniylashgan, ogir qumoq, o`rta sho`rlangan tuproqlar – 23 ga
- Yangidan uzlashtirilgan, engil qumoqli, kam sho`rlangan tuproqlar – 27 ga
- Yangidan uzlashtirilgan, engil qumoqli, kuchli sho`rlangan tuproqlar – 124 ga

Zarafshon daresining 1-soxil usti tyerrasasi. Katlamli allyuvial yotkiziklarning Sug`oriladigan utloki tuproqlar.

- Eskidan sug`oriladigan , o`rta madaniylashgan, o`rta qumoqli, kam sho`rlangan tuproqlar – 13 ga
- Eskidan sug`oriladigan kam madaniylashgan, o`rta qumoqli, o`rta sho`rlangan tuproqlar – 17 ga
- Yangi sug`oriladigan o`rta madaniylashgan, o`rta qumoqli, o`rta sho`rlangan tuproqlar – 162 ga
- Yangi sug`oriladigan kam madaniylashgan, engil qumoqli, kuchli sho`rlangan tuproqlar – 20 ga

Subtropik chul zonasi. Markaziy Osiyo provintsiyasi allyuvial yotkizikli

Zarafshon daryosi del'tasi. Sug`oriladigan utloki tuproqlar.

- Yangi sug`oriladigan kam madaniylashgan, kumli , o`rta sho`rlangan tuproqlar – 64 ga
- Yangi sug`oriladigan kam madaniylashgan, kumli, kuchli sho`rlangan tuproqlar – 114 ga

Sug`oriladigan takir-utloki tuprok

- Yangi sug`oriladigan kam madaniylashgan, o`rta qumoqli, kuchli sho`rlangan tuproqlar – 186 ga

Bu kursatkichlar xar bir tuproq guruxlariga mos bo`lgan mazmuni, shu tuproqlarga xos belgilarini, xossalarini va xususiyatlarini miqdor va sifat tomonidan tasvirlaydi. Ajratilgan tuproqning turiga karab uning tarkibidagi, gumus azot, fosfor, kaliy miqdori, mexanik tarkibi (kumli, sozli, loyli) sho`rlanish darajasi (kam, o`rta, kuchli) kabi kursatkichlar orkali tuproqlarning effektiv xosildorligi anikdanadi. Tuproqlar kartasida aks ettirilgan tuproqlar guruxini bir-biridan farq qilinishini masalan, takqoslash (geografik takdoslash) uslubi orkali kursatish mumkin. Masalan takkoslash uchun buz tuproqlar zonasidagi utloki - allyuvial tuproqlarni olamiz.

Bu tuproqtsh gumus miqdori 1,0 - 1,5 sizot suvining satxi yer yuzasidan 1,5 - 2,0 m chukurlikda bo`lganligi tufayli tuproqning namligi ularning genetik gorizontlarida juda yukori miqdorda buladi. CHo`l zonasidagi sug`oriladigan tuproqlarda gumus kam (0,2 - 0,3%) mexanik tarkibi ogir qumoqli, loyli sho`rlanishi darajasi esa kuchli. Demaq bu tuproqlar uzaro fakdt genetik tomonidan emas, balki ozuka moddalar bilan ta`minlanishi jixatdan ham bir-biridan farq qiladi. Tuproqlar kartasida undan tashqari qadimdan sug`oriladigan va Yangidan sug`oriladigan tuproqlar tipchalari aloxida rang, shartli belgi va sanalar raqami bilan aks qilingan. Yangidan sug`oriladigan tuproqlarga 40 - 50 yil mobaynida o`zlashtirilganlar kirsas, sug`oriladigan tuproqlarga 100 yil davomida sug`oriladigan va qadimdan sug`oriladigan tuproqlarga 100 yildan ortiq sug`oriladigan tuproqlar guruxi kiradi. Tuproq kartalardan foydalanishi xar xil yunalishda buladi. Masalan tuproqlar kartasida tuproqlarning mexanik tarkibi 3 ta gorizontlarda belgilanadi. 0 - 30, 30 - 100, 100 - 200 sm va amaliy ishlarda shulardan keng foydalaniladi. Sug`oriladigan tuproqlarning 0 - 30 sm katlamning mexanik tarkibi tuproqlarni ishlov berishda, iqtisodiy bahosini anikdashda, texnik kurollarning solishtirma qarshiligining texnologik kartasini tuzishda, yerlarni xaydash normasini aniqlashda, yoqilgining sarfini hisoblashda va boshqa amaliy

ishlarda keng foydalaniladi. Tuproq sho`rlanish darajasi, tuzlar miqdori va tarkibi sifati meliorativ tadbirlarni o`tkazishda zovur bilan ta`minlangan koeffitsientni aniqlashda va sho`r yuvish normasini hisoblashda xar xil notyokis mikro va mezo rel`efni aloxida belgilar bilan aks ettirish, kursatish, ishlab chikishda ularga qarshi turli chora tadbirlarni kullashda katta ahamiyatga egadir.

3.2. TUPROQ BONITIROVKASI

Tuproq bonitirovkasi deb, dexkonchilik samaradorligi va agrotexnikasining tenglashtirilgan darajasidagi tuproq unumdorligi buyicha sifatining takkoslangan bahosiga aytiladi. Tuproqning rivojlanishida muxim ahamiyatga ega bo`lgan ob`ektiv belgilari hamda xususiyatlari asosida aniqlanadi.

Bonitirovkaning asosiy maqsadi tuproqning unumdorligi buyicha nisbiy afzalligini aniqlashdan, ya`ni uzining tabiiy hamda barkaror xususiyatlari buyicha bir tuproqning ikkinchisidan necha marta yaxshi yoki emonligini kursatishdan iborat. Bonitirovkaning ob`ekti bo`lib, batafsil tuproq kuzatuvlari matyeriallari buyicha aniklangan, kat`ish taksonomik birliklarda ifodalangan tuproq xillari xizmat qiladi.

Tuproq bonitirovkasining mezoni qilib ishlab chikarish natijalariga ta`sir qiluvchi tuproqlarning tabii` diagnostik va uzok madaniylashgan jarayonida olgan belgilari kabul qilingan.

Bu esa qishloq xo`jalik ekinlari xosildorligiga yukori ta`sir qiluvchi tuproqning tabiiy diagnostik belgilari bonitirovkaning mezoni qilib olinishini bildiradi.

O`zbekistonning sug`oriladigan dexkonchilik rayonlari tuproq bonitirovkasi asosi qilib V.V.Dokuchev ishlab chikkan, keyinchalik izdoshlshari tomonidan joydagi tabiiy sharoitga mos keluvchi, rivojlantirilgan hamda takomillashgan printsiplar kabul qilingan.

Tuproq sifatini belgilaydigan unumdorlikning asosiy omili bo`lgan ozuka elementlarining miqdori, ularni madaniy ekinlar uchun samaradorlik kiymati, suv hamda issiklik rejimi, tuproq bonitirovkasi ballarini aniqlashga asos qilib olingan.

Tuproq sifatini baholashda tuproq paydo bulish jarayonidagi biogen elementlar - uglyerod, azot, fosfor va kaliyning ildiz oziklanadigan zonada tuplanishiga ham katta ahamiyat byeriladi.

Bu faktorlarning miqdor kiymati bir metr kalinlikdagi tuproqda yalpi chirindi, azot, fosfor va kaliyning xarakatlantiruvchi birikmalarining zaxirasini kursatadi.

O`zbekistonning sug`oriladigan zonolari tuproqlarning chirindi va ozuka elementlari miqdori shu tuproqlarning genetik maslubligi va mexanik tarkibi, tuproq paydo bulish jinslari, tuproq profili mayda donador katlamining kalinligi, skeletligi va boshqa diagnostik belgilari bilan uzaro uzviy bog`liqdir.

Suogriladigan tuproqlarda ozuka moddalarining miqdori asosan sug`orish davri va madaniylashish darajasiga karab aniqlanadi.

Respublikamizning dexkonchilik rayonlaridagi tuproqlarning sifati u yoki bu qishloq xo`jalik ekinlarini ustirish imkoniyatini aniklovchi agroiklim bilan uzviy bog`liq qilib belgilangan. Shunday qilib, O`zbekistonning sug`oriladigan tuproqlari bonitirovkasini aniqlash metodikasi tuproq ekologik sharoitlar asosida tuzilgan. Sug`oriladigan tuproqlar bonitirlovkasi asosiy qishloq xo`jalik ekini bo`lgan guzanining talablariga binoan ishlab chiqilgan. Bunga asosan 100 ballik epik shkala kabul qilinib, unumdor tuproqlar yukori ballarda baholangan. Bu shkalani tuzishda qishloq xo`jalik korxonalari yerlarining agrotuproq, agrokimeviy va agroxo`jalik kuzatuvi matyeriallaridan, ilgor xo`jaliklar faoliyatini taxlil qilish, xilma xil tajribalarining natijalarida hamda sug`oriladigan dexkonchilik rayonlarining agroiklim sharoitlari ma`lumotlaridan foydalanilgan.

Yerlarni baholashda tuproqning asosiy xususiyatlari va tabiiy shroitlari: genetik alomatlari, sugorila boshlangan davrning uzok - yakinligi, madaniylashtirilganligi, agroiklim resurslari bilan ta`minlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq xosil qiladigan jinslar genezisi, tuproq katlamining sizot suvlari o`tkazuvchanligi, sho`rlanish darajasi, yeroziyaga uchragan-ligi, syertoshligi, gipslashgani va xakozalar hisobga olinadi

Sug`oriladigan tuproqlarning bonitirovka shkalasidagi sifat jixatidan bahosi uning genetik maslubligi, sug`orish davri va madaniylashganlik darajalariga

nisbatan bionitet ballarida aks ettirilgan. Bu shkalada bundan tashkari tuproqning gummus zaxirasi va uni usimlik ozuka elementlari bilan ta'minlanganligi, singdirish sigimi, fizik xususiyatlari va biologik aktivligi integral tarzda hisobga olingan.

Uzlashtirish davriga karab sug`oriladigan tuproqlarning xususiyatlari ham tubdan o`zgaradi. Masalan, eng qadimdan sugorilib kelinaetgan tuproqlar bazis tuproqlari bo`lib, barcha xususiyatlari buyicha unumdor hisoblanadi.

O`zbekistonda sug`oriladigan tuproqlarning bonitirovka shkalasi madaniylashgan buyicha sust, o`rta va yukori madaniylashgan turlarga bulingan. CHirindi zaxirasi va fosfor xarakatlanuvchi birikmalarining ozligi, biologik aktivlikning sustligi, tuproqning kamroq madaniylashganligidan dalolat beradi YUkori darajada madaniylashgan tuproqlar asosan yukori agrotexnika, sistemali tarzda yukori dozalarda minyeral va organik ugittlardan foydalanish hamda shunga mos holda azot va fosforning xarakatlanuvchi birikmalari bilan yukori darajada ta'minlanganligi, shu tarika chirindi boyitilishi hamda yukori biologik aktivligi sharoitida shakllanadi.

Tuproq bonitirovkasini o`tkazishda hisobga olinishi zarur bo`lgan faktorlar orasida iklim muxim urin tutadi. G`o`za singari issiksevar ekinlar uchun eng zarur bo`lgan agroiklimiy kursatkichlardan biri bo`lib tyermik resurslar bilan ta'minlanganlik yoki 10 s dan yukori bo`lgan foydali xaroratning yigindisi hisoblanadi. Darxakikat, tuproqning bioniteti joyning kenglik zonalari va balandlik pogonalari buyicha guzaning tyermik resurslar bilan ta'minlanganligiga karab tabakalanadi. Iklim koeffitsienti yoki bizningcha, bioiklim koeffitsientini hisoblash quyidagi formula yerdamida amalga oshiriladi:

$$Bk k e.t f/E.t b$$

bu yerda etf - 10 S dan yukori bo`lgan xakikiy samarali xarorat yigindisi.

etb - bazaviy samarali xarorat yigindisi (2450) Tuproq unumdorligini belgilaydigan kompleks xususiyatlar orasida uning mexanik tarkibi ham muxim urin egallaydi. Engil va o`rta qumoqli tuproqlar unumdor tuproqlar katoriga kiradi.

Ular ishlashga engil bo`lib, yaxshi suv - fizikaviy xususiyatlarga ega. Mayda va yirik tosh aralashmalari sug`oriladigan tuproqlarning sifatini pasaytiradi, mexanizmlar bilan ishlashni kiyinlashtiradi, tuproqning suv xususiyatlarini emonlashtiradi. SHuning uchun ham joyning drenalanganligi va sho`rlanganlik darajasi buyicha xar bir tuproqning bonitet ballari ham tabakalanadi.

Tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillar katoriga suv hamda shamol ta`siridan emirilsh (yeroziya) ham kiradi. U notyokis rel`efi Yangi sugorilaetgan maydonlarda, yukori kiyaliklarga ega bo`lgan tog enbagri tyokisliklarida hamda kuchli shamol rayonlarida engil tuproqlarda yerkin namoyon nomoen buladi. Bu mintakalarda tuproq jinslari asosan less, prolyuvial va allyuvial prolyuvial yigindilardan tashkil topgan.

YUviladigan tuproqlarning sifati nisbatan lesslarda kamroq pasayadi, negaki maydonlarning tuproq chukur katlamlarida ham potencial unumdorlik yukori buladi. YUviladigan tuproqlarning prolyuvial va alyuvial-prolyuvial tuplamlarida maydonlarning sifati kuprok darajada pasayishi kuzatiladi.

Ma`lumki, oxirgi yillarda sug`orish maqsadlari uchun xilma-xil darajali gipslangan katta maydonlar uzlashtirildi va qishloq xo`jalik oborotiga kiritildi. Gips esa yerning meliorativ holatini yomonlashtiradi hamda tuproq unumdorligini pasaytiradi. Bonitet ballarini aniqlashda boshqa kursatkichlar katori aloxida tuproq turlarida gips gorizontining joylashishi va gips miqdoriga nisbatan ham pasaytiruvchi koeffitsientlar kullaniladi.

Konkret tuproqning bonitet bali asosiy xususiyati buyicha tuproq xiliga byerilgan ballga xilma-xil tuzatma koeffitsientlarini kupaytirish yuli bilan aniklanadi, ya`ni:

$$B_k = B * K_1 * K_2 * K_3 \dots K_n$$

Bu yerda: B - asosiy shkala buyicha tuproqning bonitet bali:

$K_1 K_2 K_3 \dots K_n$ tuzatma koeffitsientlar.

Xar bir aloxida olingan tuproq xili buyicha bonitet balini hisoblagandan keyin shu ma`lumotlarga asosan xo`jalik buyicha umumiy sug`oriladigan yerlarning bonitet ballarini hisoblash mumkin. Buning uchun avvalambor,

qishloq xo'jalik yer turlari buyicha tuproq xillari maydonlarini hisoblash matyeriallari zarurdir. Sug'oriladigan yer bonitirovka shkalasi genetik guruh va mexanik tarkibi bo'yicha tuzilgan.

3.1-jadval

Sug'oriladigan yerlar bonitirovkasining bazali shkalasi

Tuproqni genetik gruppalari (tipni namlash namlash qatorini nomlarini)	Mexanik tarkibi.					
	qumli	qumoq	Engil qumoq	o`rta qumoq	Og`ir qumoq	sozli
1	2	3	4	5	6	7
Bo`z tuproq mintaqasi 1.1 Irrigatsion avtomorf sug'oriladigan to`q bo`z tuproqlar	-	-	90	100	90	80
Sug'oriladigan tipik bo`z tuproq	-	-	90	100	90	80
Sug'oriladigan och tusli bo`z tuproq	-	70	95	100	90	75
Voha bo`z tuproqlari	-	-	90	100	90	-
1.2 o`tloq- bo`z tuproq va bo`z tuproq o`tloq sug'oriladigan o`tloq	-	70	90	100	80	70
1.3 Irrigatsion gidromorof sug'oriladigan tuproqlar	-	80	95	100	80	70
Botqoq va botqoq o`tloqi	-	90	100	95	75	65
Sug'oriladigan botqoq	-	75	80	75	65	60
o`tloqi voha	-	75	95	100	85	60
CHo`lzonasi	-	70	95	100	90	75
II.1 Irrigatsion avtoamorf						
Sug'oriladigan sur- qo`ng`ir						
Sug'oriladigan taqirsimon	-	75	95	100	90	70
Sug'oriladigan taqir	-	80	100	90	80	65

Sug`oriladigan cho`l-qumlik	60	-	-	-	-	-
CHo`l vohasi	60	80	95	100	90	60
II.2o`tuvchi						
Sug`oriladigan sur qo`ng`ir-o`tloqi	60	70	85	100	90	70
Sug`oriladigan taqirli-o`tloqi	-	-	80	100	85	65
Sug`oriladigan cho`l o`tloq va o`tlok cho`l	60	80	100	85	75	65
II.3 Irrigatsion gidromorf						
Sug`oriladigan o`tloq	70	85	100	90	80	60
Sug`oriladigan botqoq-o`tloq va o`tloq-botqoq	70	85	80	85	70	55
Sug`oriladigan botqoqti	60	75	100	75	60	50
Botqoqli voha	80	90		95	80	70

Xo`jalikning sug`oriladigan ekin maydonlari bonitet bali tuproq katlamini tashkil qiluvchi xilma-xil tuproq xillari bonitet ballarini o`rtacha keltirilgan kiymati tarikasida aniqlanadi.

3.3. YERLARNI BAHOLASH

Yerlarni baholash yer kadastrining tarkibiy qismi bo`lgani holda shu bilan birga xalq xo`jaligida foydalaniladigan tabiiy resurslarni umumiy tarzda baholashning bir qismidir. Bunday ayniksa qishloq xo`jaligining asosiy ishlab chikarish vositasi sifatida yerlarni baholash katta ahamiyatga ega. U joyning mintakaviy farqini hisobga olish va takkoslash buyicha muxim muammolardan biri sifatida gavdalanadi. Ko`pchilik xalq xo`jaligi masalalarini, shuningdek, qishloq xo`jalik korxonalari ichki masalalarini, yerlarning sifat holatini chukur o`rganmasdan va uni qiyosiy baholamasdan muvaffakiyatli xal qilish mumkin emas.

Baholash muammosini muvaffakiyatli xal qilish eng avvalo uni ob`ekti va sub`ektini to`g`ri belgilashdan iborat. Tuproqshunoslik tadqiqotlari va elarni baholash buyicha adabiyotlarni o`rganish shuni kursatadiki, keng ma`noda

baholash ob`ekti sifatida, qishloq xo`jaligi ishlab chikarishining eng asosiy vositasi bo`lgan yerlar gavdalanadi.

Yer - baholash ishlarini quyidagi bosqichlarda o`tkazish belgilangan:

- tayyorgarlik ishlari,
- yer maydonlarini rayonlashtirish,
- tuproqlarning agroishlab chikarish guruxlarini aniqlash,
- baholash shkalalarini tuzish maqsadlari uchun xosildorlik va xarajatlarning bazis kiymatlarini hisoblash,
- xo`jaliklarda yer baholash ishlarini o`tkazish,
- baholash matyeriallarini karab chikish hamda tasdiklash,
- yer - baholash xujjatlarini mayyerlash va tarkatish.

Yerlarn baholashda aniq va tahliliy natijalar olish hamda baholash ishlarini qulaylashtirish maqsadida yerlar baholash uchun kadastr rayonlarga ajratiladi. Yerlarni baholash uchun (kadastr) rayonlariga ajratish, Respublika, viloyat va tumanlarda shu joylarning tuproqlari, iqlimi, texnologiyasi va boshqa farqlari, shuningdek, xo`jalikning ihtisoslashganligi hisobga olingan holda mamlakatning umumiy tabiiy qishloq xo`jalik rayonlariga ajratish sxemasi bo`yicha bajariladi. Umumiy tabiiy qishloq xo`jalik rayonlarida ajratish sxemasiga mos ravishda O`zbekiston Respublikasining kadastr rayonlarga ajratiladi.

Yerlarni baholash maqsadida tabiiy tekislik provintsiyalar va tog`li viloyatlar mamlkatining umumiy rayonlashtirish sxemasiga asosan tabiiy okrug va yer baholash rayonlariga ajratiladi.

Tabiiy okruglar asosan agroiqlim, gemorfologiyasi va tuproq meliorativ belgilari o`xshash bo`lgani uchun ajratiladi. Tekislik profintsiyasi doirasida okruglarning xarakterli belgilari shulardan iboratki, qishloq xo`jalik yer turlarining konturlari ma`lum miqdorini belgilovchi va yerning boshqa tabiiy texnologiya xususiyatlarini ko`rsatuvchi gemorfologik sharoitlari bir xilligidir.

Yerni baholash, kadastr rayonlari, viloyatlar va respublika tarixida tabiiy okruglarning bir qismini tashkil qiladi.

Unumdorlik bo'yicha baholash tartibini takomillashtirish, dala sharoitida o'tkazilgan va vegetatsion tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish asosida ayrim pasaytirish koeffitsientlariga o'zgartirishlar kiritish zarur, natijada litologiya bilan ona jinslar genezisi yanada uzviyrog bog'lanadi.

Unumdorlik bo'yicha baholash - agrotexnika va dehqonchilikni intensivlashning o'rtacha darajasida tuproq hamda unumdorlik xususiyatlariga solishtirma baho berish, demakdir. Bu ish tuproqning ham tabiiy, ham ma'daniylashtirish natijasida vujudga kelgan xususiyatlari hisobga olingan holda amalga oshiriladi. qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi, hosil olish uchun zarur bo'lgan agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuining xususiyati hamda tarkibi tuproqning o'ziga xos bo'lib, shu tomonlarga bevosita bog'liqdir.

Unumdorlik bo'yicha baholash muayyan yerdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining talablariga hisobga olingan holda o'tkaziladi. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlari sharoitida g'o'zaning talablariga hisobga olingani e'tiborda tutiladi. g'o'zaning talablari hisobga olingan holda aniqlangan unumdorlik ko'rsatkichlari (bonitetlar) paxta majmuiga kiruvchi boshqa hamma ekinlar (sholi, kanop va ko'p yillik mevali daraxtlardan tashqari) eqiladigan, sug'oriladigan yerlarni baholash uchun ham turi keladi.

Yerlarni baholashda tuproqning asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari: genetik alomallari, sug'orila boshlangan davrning uzoq - yaqinligi, ma'daniylashtirilgani, agroiklim resurslari bilan ta'minlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq hosil qiladigan ekindor genezisi, tuproq qatlamini sizot suvlari o'tkazuvchanligi, sho'rlanish darajasi, yeroziyaga uchragan, syertoshligi, gipslashgani va hokazolar hisobga olinadi.

Genetik alomatlar, sug'orila boshlanganligining uzoqligi va ma'daniylashtirilgani - barcha sug'oriladigan yerlarni baholashda umumiy mezon bo'lib hisoblanadi.

Sug'oriladigan zonalaridagi shag'alli tuproqlar asosan tog' oldi tekislik va vodiylarda uchraydi. O'zbekistonda bunday joylarga Malikcho'l, Jizzax, Zarafshon va qashqadaryo vohalari hamda Farg'ona vodiylari kiradi.

SHag`alli tuproqlar o`zini kam chirindililigi bilan strukturasizligi, o`simlik oziqa elementlarini kamligi, shuningdek namlikni kam bo`lishi va uni uzoq ushlab turolmasligi bilan harakatlanadi. SHu bilan birga ular yuqori suv o`tkazuvchanlik xususiyatiga ega. Undan tashqari shag`alli tuproq nisbatan tez ko`rib qoladi. Bularning hammasi shag`alli tuproqni kam unumdor bo`lishiga olib keladi.

Yerlarni baholash asosan tuproqlarning xususiyatlaridan kelib chiqib bajariladi. Bunda tuproqning har bir xususiyati bo`yicha bonitirovka koeffitsentlaridan foydalaniladi.

3.2-jadval

Madaniy o`simliklar uchun tuproqni salbiy ta`sirini namoyon bo`lishi darajasiga berilgan bonitirovka koeffitsentlari

Xususiyatlarni namoyon bo`lish darajasi.	SHo`rlani sh	Yeroziyal anish	SHudgor qavat skleti.		
			tosh	shag`al tosh	shag`alo`sim lik ildizi
namoyon bo`lmagan	1,00	1,00	100	100	100
Kuchsiz	0,85	0,95	0,90	0,90	0,95
o`rtacha	0,60	0,80	0,75	0,80	0,85
Kuchli	0,40	0,70	0,60	0,65	0,70
juda kuchli	0,30	0,50	0,40	0,45	0,50
yuvilib to`langan	-	0,90	-	-	-

Cho`l va yarim cho`l zonadagi sug`oriladigan yerlarni tarkibida chirindilar nisbati kam bo`lishiga qaramasdan, uni tuproq hosil bo`lishi jarayoniga yerni unumdorligini oshishiga bo`lgan ta`siri yuqoridir. Chirindining elementlar tuproq jarayonlariga, rejimiga va tuproqni xususiyatlarini shakllanishiga bo`lgan ta`siri hammaga ma`lum. Chirindilar yuqori shimuvchanlik xususiyatiga ega bo`lib, o`zida katta miqdorida oziqa modda va nam ushlab qoladi.

O'zbekistonda kam chirindili yerlarga mineral o'g'itlarni solinishi paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini hosildorligini sezilarli oshishiga olib keladi.

Keyingi paytda Respublikada yerning unumdorligini pasayib ketirishini va qishloq xo'jalik o'simliklarini o'sishini to'xtatishini tuproqda chirindi miqdori kamayishi bilan bog'lanmoqda. har yili bir gektar paxta maydonidan 300-400 kg atrofida gumus kamayishi aniqlangan. SHuning uchun g'o'za monokul'turasida yerga organik o'g'itlarni solmasligi sug'oriladigan yerlarni hosildorlikni asta sekin pasayib ketishiga olib keladi.

Struktura zichligi tuproqni muhim agrofizik xususiyatidir. SHuni hisobiga hosildorlik oshirish tadbirlarida butun vegetatsion davrda tuproqni optimal struktura zichligini optimal struktura zichligini hosil qilish va ushlab turish masalalariga katta ahamiyat beriladi. Tuproqni belgilab byeruvchi faktor sifatida sug'oriladigan yerlarda yanada ham balandroq bo'ladi. Ma'lumki sug'oriladigan yerlarda spetsifikatsiyasi, ayniqsa paxtachilik va sabzavotchilikda har bir sug'orishdan keyin tuproqni yuqori qavatini ishlov berish zarurligidan iboratdir. Paxtachilikda vegetatsiya davrida 3-5 marta tuproqqa ishlov byeriladi. Agar bunga haydashni, molalashni boronalashni, paxtani va ko'sakni va mashinada tyerishni, defolyatsiya va o'simliklarini yadoximikatlari bilan ishlov berishni mashinalar orqali amalga oshirilsa, u holda traktor bir mavsumda har xil agregatlar bilan bir dala bo'ylab 8-10 marta, sabzavotchilikda esa undan ham ko'p o'tadi. Diametri 0,03 mm dan kichik bo'lgan g'ovaklarga mikroorganizmlar kira olmaydi. Tuproq qavatida ildizni chegaralanib tarqalishi o'simliklarni oziqlanish maydonini kamayishiga olib keladi. Bu esa ularni rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Natijada hosildorlik kamayadi. Shuning uchun sug'oriladigan yerlarda tuproqni optimal struktura zichligiga katta ahamiyat beradi. Bu ma'noda tuproqni 45-60 sm. gacha chuqur haydashlar yoki 60-100 sm gacha yumshatishlar yaxshi effekt byerib, ular suv va havo rejimini yaxshilanishiga biologik aktivlikni kuchayishiga, rejimini yaxshilanishiga biologik aktivlikni kuchayishiga, oziqa elementlarini mobilligini biologik aktivlikni kuchayishiga oziqa elementlarini modilligiga olib keladi. Tuproqni zichligini baholash kriteriyasi g'ovakligi bo'lib, qumoq- sozli tuproq

uchun jami massa. Tuproqni zichligi va gumus miqdori bonityerofka koeffitsenti 3, 4, jadvallarda keltirilgan.

3.3-jadval

Shudgor qilingan qavatining gumus tutishi bo'yicha bonitirovka koeffitsenti

Gumus miqdori % da	Bonityerovka koeffitsenti
1.00 gacha	0,70
1,1-2,0	0,80
2,1-3,0	0,90
3,0 dan ortiq	1,00

3.4- jadval

Shudgor osti qavatini zichligiga berilgan bonitirovka koeffitsenti

Zichlanish darajasi	Bonitiovka koeffitsenti	
	Avtomorfli	Yarimgidromorf va gidromorfli
zichlashmagan	1,00	1,00
kuchsiz	0,90	0,85
o`rtacha	0,80	0,70
kuchli	0,70	0,50
juda kuchli	0,60	0,40

Xo`jaliy va boshqa yerdan foydalanuvchilarni tuproqlarini bonitirovka qilish uchun tuproq kartalari asos bo`lib xizmat qiladi. Baholash ob`ekti ulardan ajratilgan har xil tuproqdir. Amaliy bonitirovka quyidagicha amalga oshiriladi. Dastlab tuproq kartasidagi eksplikatsiyadan tartib bo'yicha genetik guruhlarini va tuproq xillarni mexanik tarkibini bonitetini dastlabki ballari aniqlanadi. Boshqa xususiyatlarni ko`rsatkichi bonitirovka koeffitsenti jadvallarida keltirilgan. Har bir tuproq xilini yakuniy bonitet bali dastlabki balni shkala bo'yicha bonitirovka koeffitsenti ketma - ketma ko`paytirish orqali amalga oshiriladi.

Tuproqni bonitirovkalash vedomosti

Tuproq	Tuproqni nomi	Baza shkalasi bo'yicha ballar	Bonitirovka ko'effitsentlari				Maydon (gektar)	Bonitet ni yakuniy bali
			1	2	3	4		

Yerlarni baholash ishlari malakasi shuni ko'rsatadiki, tuproqni bonitirovka qilish har bir alohida holatda chegaralangan miqdordagi bonitirovka ko'effitsentlarini (3 tadan oshmasligi kyerak) ishlatish maqsadga muvofiqdir. Ko'p miqdorda ko'effitsentlarini ishlatish, ayniqsa tenglanish va ifodalanish xususiyatlari noqonuniy ravishda tuproqni baholash ballarini pasaytiradi. Tuproqlarni bonitirovkasidagi printsiptial holat quyidagilardan iborat: shkala bo'yicha ballar va qo'llanilayotgan bonitirovka ko'effitsentlari birgalikda baholanayotgan tuproqni hamma asosiy agronomlik xususiyatlarini qamrab olishi lozimdir. hamda paxta hosildorligini 80% ni tashkil etishi kyerak. **Tuproq bonitirovkasi kartasi mazmuni.** Tuproq bonitirovka kartasida eksplikatsiya bilan bir qatorda tuproqni unumdorligi bo'yicha tasnifi jadvali keltirilgan bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Soliq boshqarmasi tomonidan qabul qilingan qonun bo'yicha, tuproqlar unumdorligi darajasi 10 ta sinfga guruhlashgan bo'lishi zarur. Bu kartada tuproqni xili emas, balki uning unumdorlik sinfiga quyidagi ranglarda bo'yaladi.

X - sinf to'q yashil

V- sinf sarg'ish

IX-sinf yashil

IV- sinf to'q pushti

VIII- sinf to'q sariq

III- sinf pushti

VII- sinf sariq

II- sinf to'q kulrang

VI- sinf qizg'ish

I- sinf kulrang

(Rang shkalasi bo'yicha boshqa takliflar ham bo'lishi mumkin).

3.6-jadval

Tuproqni unumdorligi bo'yicha tasnifi

Sinflar		Bonitet ballari	Tuproq xiliga kiruvchi	sug'oriladigan yer maydoni
	Nomlari			
X	Eng yaxshi	91-100		
IX	Juda yaxshi	81- 90		
VIII	Yaxshi	71-80		
VII	o'rtadan yuqori	61-70		
VI	o'rtacha	51-60		
V	o'rtadan past	41-50		
IV	Vositali	31-40		
III	YOmon	21-30		
II	Juda yomon	11-20		
I	qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz	1-10		

Bu jadval asosida va yer solig'i ta'rifiga ega bo'lgan xo'jaliklar o'zlari butun xo'jalikka yoki alohida brigada yoki uchastkalarga soliq hajmini o'zlari hisoblab chiqishi mumkin.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida hamma turlari dinamik va sug'oriladigan yerni ko'pgina xususiyatlari turg'un bo'lmaydi nisbatan qisqa vaqt oralig'ida uning xususiyatlari o'zgaradi. Shuning uchun tuproqni baholash mezonlarini tanlash paytida ko'proq konservativ baho berish zarur va shu bilan tuproqni qishloq xo'jalidagi hosildorlik xususiyatiga qaraladi. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida bunday xususiyatlarga mexanik tarkibi kiradi. Mexanik tarkib tuproqni o'zak xususiyatiga kiradi va bu xususiyat ona naslidan myeros bo'lib o'tadi. SHu bilan birga bu xususiyat ko'p hollarda tuproqni unumdorligini aniqlaydi.

Tuproqni yomonlashtiradigan va uning unumdorligini pasaytiradigan amallarga shag'alni joylashtirish chuqurligi, qum qatlami, gil gorizonti, gipis gorizonti, shoh va arzik qatlamlari kiradi.

Ko'pincha yer va tuproq so'zlarini aralashtirib sinonim sifatida ishlatishadi, lekin yer tushunchasi tuproq tushunchasiga nisbatan kengroqdir.

Respublikani tog' oldi tekisliklari murakkab rel'efga bo'linganligi sababli tuproqni xususiyatlariga tuproqni sifatiga uni qaysi joyda joylashganligi hal qiluvchi ahamiyatga ega: Tepalikdami, jarlikdami qiyalikdami yerni sifatiga yon bag'irliklarini ekspozitsiyasi va nishabliklarini katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun tog' osti tekisliklarida joylashgan katta masshtabli tuproq xaritalari rel'ef elementlariga, yon bag'irlikning ekspozitsiyasi va nishabliklariga ko'ra tuproq xillari ajratilishiga kyerakdir.

3.7- jadval

Dala yuzasi nishabligi va qiyaliklari ekspozitsiyasiga byerilgan bonitirovka koeffitsentlari.

YOn bag'ir ekspozitsiyasi	Koeffitsentlar	Maydon yuzasi nishabligi (grad)	Koeffitsentlar
Janubiy	1,00	1 gacha	1,00
SHarqiy	0,95	1-3	0,90
g'arbiy	0,90	3-5	0,80
SHimoliy	0,85	5-7	0,70
		7- dan ortiq	0,60

Tuproqni xususiyatlaridan tashqari baholash kriteriyalari etib ko'pincha agroiklim ko'rsatgichlari relief, dala konturli va boshqa ko'rsatgichlar qo'llaniladi. Agar bunga qat'iy yondoshadigan bo'lsak noto'g'ri hisoblanadi. SHunga ko'ra tabiiy sharoitlar majmui baholanishiga yordam byeradigan shunday tartibdagi uslublarni bonitirovka yoki qishloq xo'jalik ekinlarini ekologik sharoitlarda nisbiy

baholash deyish mumkin. Agroiqlimni, tuproqni, relefni hususiy alohida baholash ekologik sharoitlardagi bonitirovkani tarkibiy qismi sifatida qurish mumkin.

3.8-jadval

Effektiv harorat yig`indisi bo`yicha agroiqlim hududining bonitirovka koeffitsenti.

Effektiv harorat summa t	Bonitirovka koeffitsenti
2050 dan kam	0,85
2051-2200	0,90
2201-2400	0,95
2401-2500	1,00
2501-2600	1,10
2601-2800	1,15
2801-3000	1,20
3000 dan yuqori	1,25

Bonitirovkaga ta`sir qiladigan omillardan yana biri bu gipsdir. Gipslangan gorizontlar yomon filtrlovchi va kapillyar xususiyatlariga ega. SHunday qilib gips qatlamlarda kapillyar ko`tarilishini balandligi odatda 20 - 80 sm ga teng. Grunrt suvlarining har xil gidroximik xaraktyeri bilan xarakterlanadi va o`sha joyda karbonat magniyli sho`rlanish yuzaga keladi. Grunt suvlarining magniy karbonat bilan yuqori darajada to`yinishini chuqurligi 0,5-1,5 metr chuqurligidagi shohli yoki arzikli gorizontini shakllantirishiga olib keladi. Bu zichlanish amalda o`zidan suvni o`tkazmaydi va ma`daniy o`simliklarni ildizini usishga jiddiy tuskinlik qiladi.

Tuproqning nomi uning paydo bo`lishi jarayonlarini o`z ichiga olib, qaysi tipga mansubligi ko`rsatadi. Tuproq tiplari tog` poyalari va kenglik mintaqalari bo`yicha bulingan. Sahro mintaqasi tuproqlari sur tusli qo`ng`ir, sahro qumli, taqirli, o`tloqli taqirlar, sho`rxoklar va yarim gidromorf (o`tloqi taqirli, sur tusli qo`ng`ir o`tloqi va boshqalar).

3. 9-jadval

Ildiz joylashadigan qalinlikni quvvatini chegaralovchi quvvat va gorizontlarni joylashish chuqurligini bonitirovka koeffitsenti.

Qavat va gorizontlar ni joylashish chuqurligi M	SHag`al qavati	qumli qavat	Gilli qavat	Gipsli qavat	SHohli va arzikli qavat	CHirindi qavat
Bonitirovka koeffitsentlari						
0,30 gacha	0,60	0,65	0,45	0,50	0,50	0,65
0,31 - 0,50	0,70	0,75	0,50	0,70	0,60	0,75
0,51-0,70	0,80	0,85	0,65	0,80	0,75	0,85
0,71-1,00	0,90	0,95	0,85	0,90	0,90	0,95
1,00 dan ortiq	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00

Agarda gips gorizontni kuchsiz darajada bo`lsa bonitirovka koeffitsenti 20% ga ortadi. (koef1,2 )o`rtacha darajasida esa 10% ga ortadi (koef1.1)

Bonitirovkada hisobga olinishi lozim bo`lgan eng muhim faktorlardan biri bu tuproqning mexanik tarkibidir. Tuproqning mexanik tarkibi tuproqni tashkil qiluvchi zarrachalarini katta-kichikligi bilan xarakterlanadi. Loyli zarrachalari diametri 0,01mm dan kichik bo`ladi, qum zarrachalari diametri 0,01 dan yirik bo`ladi, changsimon zararchalar 0,01 metri 0,01 mm dan yirik bo`ladi, changsimon zarrachalar 0,01-0,001 mm gacha va gil zarrachalari 0,001 mm dan kichik bo`ladi. qumli zarrachalarning foiz miqdorida bir-biriga nisbatiga qarab aniqlanadi.

3.10-jadval

Tuproqlarning mexanik tarkibi bo'yicha bo'linishi

Tuproqlarning mexanik tarkibiga ko'ra nomi	Fizik loy miqdori (<0,01 mm)	Fizik qum miqdori (>0,01mm)
qum	0-10	100-90
qumloq	10-20	90-80
Engil qumoq	20-30	90-70
o'rta qumoq	30-45	70-55
Og'ir qumoq	45-60	55-40
Engil loy	60-75	40-25
o'rta loy	75-85	25-15
Og'ir loy	>85	<15

Tuproq xaritasiga yozilgan eksplikatsiyada mexanik tarkibi haydov qatlamida, (0-30sm) ildiz oziqlanadigan qatlamida (30-100 sm)va to'shalgan jinslar qatlamiga (100-200 sm) ko'rsatiladi.Tuproqning fizik xususiyati- uning unumdorligini aniqlovchi ko'rsatkichlardan biri bo'lib, uning zichligi, g'ovakligi, suv o'tkazuvchanligi, strukturasi (gumus va gil bilan birgalikda)va boshqa ko'pgina ko'rsatkichlari ko'pincha mexanik tarkibga bog'liq bo'ladi.Loy va og'ir qumoq mexanik tarkibiga ega bo'lgan tuproqlar yuqori suv sig'imi, kuchsiz suv o'tkazuvchanligi, changli va qatqaloq paydo bo'lishi xususiyatlari bilan ajralib boradi.

3.4. YERLARNI BAHOLASHNING IQTISODIY MOHIYATI

Yerarni baholash ishlarining asl maqsadi va mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yerlari baholash ishlari asosan iqtisodiy ahamiyat kasb etishiga guvoh bo'lamiz. Chunki barrcha sohalar singari yer tuzish ishlarining ham asosida iqtisodiyot yotadi. Yerlarni baholashning ham iqtisodiy mohiyati shunda.Yerlarni baholashning iqtisodiy mohiyati quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan. Yerni baholash orqali tuproqning o`simlik o`stira olish qobiliyati aniqlanadi va ma`lum koefitsentlardan foydalangan holda har bir qishloq xo`jalik ekiniga qo`yiladigan hosi talabi aniqlanadi.

Ikkinchidan. Yerlarga byerilgan bonitirovka ballari natijalariga asosan yerlardan olinadigan yer solig`i miqdori belgilanadi.

Uchinchidan. Asosiy qishloq xo`jalik ekinlarining (paxta, sholi, makkajo`xori doni uchun, beda) ko`p yillik daraxtzorlar va yaylovlarning ekin maydonlarining, hosildorlik, yalpi mahsulot, har bir mahsulotni etishtirishga sarf bo`lgan pul birligidagi xarajatlar va ishlab chiqarishga sarf bo`lgan mehnat xarajatlari xar bir qishloq xo`jalik ekinining asosiy va (aylanma) fondlari bilan ta`minlanganligi, solingan o`g`itlarning miqdori va tarkibini aniqlash va bu ma`lumotlarni tahlil qilish orqali yerlarning iqtisodiy samaradorligini muntazam oshirib borish.

Tuproq bonitirovkasi ma`lumotlari bo`yicha g`o`za va boshqa qishloq xo`jalik o`simliklarni hosildorligini aniqlash. Byerilgan tuproqni hosildorlik darajasiga mos ravishda qaysidir qishloq xo`jaligi o`simligini hosildorligini aniqlash uchun uning bonitet balini hosil bahosidan 1 ball qiymatiga ko`paytirish kyerak. Tuproq bonitetini hosildorlik narxini 1 balini respublikadagi qishloq xo`jaligi o`simligini o`rtacha maksimal hosilini 100 ballga bo`lish orqali hisoblanadi.

11- jadval

O`simlik	Respublikaning o`rtacha maksimal hosili ts/ga	Tuproq bonitetini ballini hosildorlik narxi
Paxta	40	0,40
bugdoy	60	0,60
Suli	75	0,75
2-3 yillik beda	200	2,00
Makkajo`xori (donga)	75	0,75

Massivning tuproqlar eksplikatsiyasiga ko`ra massiv yerlarining bonitirovka natijdalari maydonlar bo`yicha quyidagi ballar mavjud:

- 77 ball – 616 ga;
- 68 ball – 25 ga;
- 65 ball –13 ga;
- 60 ball – 188 ga;
- 54 ball – 270 ga;
- 51 ball – 82 ga;
- 46 ball – 250 ga;
- 41 ball – 23 ga;
- 40 ball – 112 ga;
- 36 ball – 144 ga;
- 34 ball – 424 ga.

Massiv yerlarining o`rtacha bonitet bali 54 ballni tashkil qiladi. Massiv yerlarining o`rtacha ball bonitetidan hamda yuqoridagi 6-jadval ma`lumotlaridan foydalangan holda massiv yerlarining har bir qishloq xo`jaligi ekini uchun hosil miqdorini aniqlaymiz.

Paxta. Paxta uchun respublikaning o`rtacha maksimal hosili 40 ts/ga ni tashkil qiladi. Tuproi bonitet ballining 1 balli uchun koeffitsent 0,40 ga teng. Massivda ekiladigan paxta uchun hosil miqdorini aniqlash uchun ushbu koeffitsentni massiv yerlarining o`rtacha ball bonitetiga ko`paytiramiz.

$$0,40 \text{ ts/ga} * 54$$

$$\text{ball} = 21,6 \text{ ts/ga}$$

Bug`doy uchun: $0.60 \text{ ts/ga} * 54 \text{ ball} = 32,4 \text{ ts/ga}$

2-3 yillik beda uchun: $2.0 * \text{ts/ga} * 54 \text{ ball} = 108 \text{ ts/ga}$

Makkajo`xori doni uchun: $0,75 \text{ ts/ga} * 54 \text{ ball} = 40.5 \text{ ts/ga}$.

Yer maydonlarini iqtisodiy baholashning tuproq bonitirovkasidan asosiy farqi Shundani iboratki, bonitirovka asosan tuproqlarning tabiiy jism holatini , ya`ni qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini yuritishning iqtisodiy sharoitlarini hisobga olmagan holatini o`rganadi. Iqtisodiy baholashda esa yer qishloq xo`jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida qaraladi. Yerni baholash

dehqonchilikning shu davrda yerishilgan intensivligi darajasida iqtisodiy unumdorligi jihatidan yer maydonlarining sifatini zarur aniqlikda yoritiladi. U joyning tabiiy hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy sharoitlarini, yer uchastkalarining joylashgan o`rnini, qishloq xo`jalik mahsulotlarini etishtirishdagi mehnat va pul xarajatlarini hisobga olish orqali o`tkaziladi.

qo`yilgan maqsad va talablariga binoan yerlarni iqtisodiy baholash umumiy hamda xususiy (yakka tartibda) bo`lishi mumkin. Xususiy baholash xilma-xil tuproq sharoitlarida aniq qishloq xo`jalik ekinlari etishtirishning samaradorligin aniqlash maqsadida o`tkaziladi. SHu bilan birga xususiy baholash xilma-xil qishloq xo`jalik ekinlarini o`stirishda tuproqlarning yaroqligi to`g`risida ham ma`lumotlarga ega bo`lib, qo`shimcha kapital mablag`larsiz ma`lum iqtisodiy samaradorlikni ta`minlaydi. Umumiy iqtisodiy baholash tuproqlarning unumdorlik ko`rsatkichlarini va dehqonchilik intensivligini shu davrda yerishilgan darajasida yer maydonlaridan foydalanishning samaradorligini xarakterlaydigan ko`rsatkichlarini aniqlashga mo`ljallangan. Yer baholash birligini saylash ma`lum sharoitga asoslanadi. Mingdan ortiq tuproq xillari mavjud bo`lgan O`zbekiston sharoitida yer maydonlarini iqtisodiy baholash yerlarini baholash metodikasiga binoan o`tkaziladi va bu yerda shunday yer baholash birligi qilib tuproq agroishlab chiqarish guruhlari qabul qilindi. Iqtisodiy nuqtai nazardan ishlab chiqarish vositasi holatidagi yer maydonining sifati tuproq unumdorligi orqali aniqlanadi. Tuproq unumdorligi faqat qishloq xo`jalik ekinlarining turlicha hosildorligiga olib qoladi. SHuning uchun ham hosildorlik yerlarni iqtisodiy baholashning birlamchi ko`rsatkichi rolini bajaradi. Yer maydonlarini iqtisodiy baholash uchun tanlangan qishloq xo`jalik ekinlari shu kadastr rayonning hududi uchun xarakterli bo`lishi zarur. Ishlab chiqarish va tovar ahamiyatiga ega bo`lgan qishloq xo`jalik ekinlari, shu jumladan sug`oriladigan dehqonchilikning asosiy ekinlari: paxta, sholi, g`alla ekinlari, makkajo`xori doni uchun va beda asosiy ro`yxatga kiritiladi.

SHunga qaramasdan, hosildorlik bo`yicha yer maydonlarini iqtisodiy baholashning asosiy mushkul tomoni Shundani iboratki, qishloq xo`jalik ekinlarining hosildorligi ularni etishtirishga sarflangan xarajatlarning tengligi

sharoitida yerlarning sifatini belgilaydi. Bundan tashqari, umuman olganda, bu ko'rsatkich yerlarning unumdorligi to'g'risida to'la ma'lumot byera olmaydi. Xilma-xil qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini to'laroq aniqlashga yalpi mahsulotning qiymati hamda tabaqalangan daromad kabi pul qiymatidagi ko'rsatkichlar xizmat qilishi mumkin.

YAlpi mahsulot qiymati qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini ekin maydonlari strukturasi hisobida kadastr baholariga ko'paytmasi shaklida aniqlanadi.

$$Y_{Am} = \frac{Y_1 C_1 P_1 + Y_2 C_2 P_2 + \dots + Y_n C_n P_n}{P_1 + P_2 + \dots + P_n} = \sum_{i=1}^n \frac{Y_i C_i P_i}{P_i}$$

Bu yerda: $U_1 U_2$ ekinlar hosildorligi p ga

SS-ekinlarning kadastr bahosi F kadastr bahosi

1 2-bu ishlab chiqarishning past sharoitida ijtimoiy zarur xarajatlarga asoslangan baho,

$R_1 R_2$ -ekin maydonlari, ga

Xarajatlarni koplash (XK) quyidagi formula yordamida aniklanadi:

$$XK = Y_{AM}/X$$

bu yerda Y_{AM} - bir gektarga to'g'ri keladigan mahsulotning qiymati (yalpi qiymat umumiy baholash uchun ma'lum ekinda yakka tartibda baholash uchun).

X- umumiy mehnat xarajatining pul birligidagi qiymati (1gektar xaydalma yer hisobida yoki anik ekinning 1 gektar maydoni hisobida).

Bir gektar hisobida tabakalangan daromad miqdorini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Sof daromadning qiymati hisoblanadi:

$$SD = Y_{AM} - X$$

2. Bir gektar hisobida normal sof daromadning (SD_m) qiymati aniklanadi:

$$SD_m = 0,15 * (F_{as} * F_{ay})$$

bu yerda F_{as} - asosiy ishlab chikarish fondlarining qiymati (yerlarni umumiy baholashda 1 gektar xaydalma yer hisobida va xususiy baholashda - 1 gektar ma'lum ekin maydoni hisobida);

F ay - aylanma ifondlarining qiymati (1 gektar xaydalma yer va 1 gektar ma'lum ekin maydoni hisobida).

Aylanma fondlarning qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$F_{ay} = X - A$$

bu yerda: A - 1 gektar hisobida asosiy vositalar amortizatsiyasi (umumiy baholash uchun - dekonchilik buyicha, xususiy baholash uchun - anik ekinlar buyicha).

Normal sof daromadning qiymati byerilgan yer baholash rayoni xo'jaliklari buyicha bir xil qilib belgilanadi.

3. Tabakalangan daromad (TD) sof daromadning normal qiymatidan yuqori qismidagi qo'shimcha kabi hisoblanadi.

$$TD = SD - SD_m$$

Olingan kursatkichlar asosida kadastr rayoni buyicha yer maydonlarini iqtisodiy baholash shkalasi tuziladi. baholash shkalasi jadval kurinishida bo'lib, yer turlari buyicha barcha baholash birliklarini maxsuldorligi va unumdorligi darajasini nisbiy kursatkichlarda yoritadi. Shkala asosan yer maydonlarining sifatini xarakterlaydigan turli kursatkichlar buyicha tuziladi.

Ma'muriy tuman chegarasida yer baholash ishlarini o'tkazish asosan alohida xo'jalik maydonlariga yer materiallarini umumlashtirilgan holda jami tuman bo'yicha baholash ko'rsatkichlarini o'rtacha keltirilgan qiymatlarini aniqlashdan iborat. Bunda ikki holat kuzatilishi mumkin : birinchi-ma'muriy tuman barcha hududi bir kadastr rayoni chegarasida joylashgan bo'lsa, ikkinchi-holatda ma'muriy tuman yerlari ikki yoki undan ortiq kadastr rayonlari tarkibida bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda yer baholashning o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlari tumanning barcha yerlari uchun bitta shkala bo'yicha aniqlanadi. Keyingi holatda esa o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlar turli kadastr rayonlari tarkibiga kirgan hududiy tuman qismlari uchun alohida shkalalardan olinadi. Yer bahosining o'rtacha keltirilgan ko'rsatkichlari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$B_{o'RT} S_K = \frac{B_1 + P_2 B_2 + P_n B_n}{P_1 + P_2 + \dots + P_n}$$

Bu yerda :

$B_{\text{urt}} S_K$ -ma'muriy tuman qishloq xo'jalik yerlarining baho ko'rsatkichi yoki o'rtacha keltirilgan ball

$B_1 B_2 \dots B_n$ alohida korxona, muassasa va tashkilotlar qishloq xo'jalik yerlarining baho ko'rsatkichlari yoki ballari

$R_1 R_2 \dots R_n$ -korxona, muassasa va tashkilotlar qishloq xo'jalik yerlarining maydonlari, ga

Yerlarni baholash natijalari bo'yicha jami tuman bo'yicha yer baholash ko'rsatkichlarini o'rtacha qiymatga olib kelgan holda ko'p yillik daraxtzorlar turlari va alohida qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish samaradorligi bo'yicha xususiy baholash hamda asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha umumiy baholash vedomostlari tuziladi.

3.5. YER BAHOLASH ISHLARINI O'TKAZISHNING EKOLOGIK ASOSLARI

Bugungi kunda yer tuzish ishlarini bajarishda ijtimoiy -iqtisodiy meyorlar bilan bir qatorda ekologik omillarni ham hisobga olish zarur. Chunki bugungi kunda ekologik muammolar tobora yiriklashib globallashib bormoqda.

Yer baholash ishlarini o'tkazishda ham bir qancha ekologik meyorlarga amal qilish lozim. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Baxolanayotgan tuproq tarkibidagi kimyoviy radiaktiv moddalarni miqdorini aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan choralar ko'rish.
- Yerlarning sho'rlanishiga sabab bo'layotgan tabiiy va antropogen omillarni aniqlash va sho'rlanishning oldini olish;
- Yerlarni yeroziyalaninshini aniqlash, natijalarni yillar bo'yicha tahlil qilish va unga qarshi chora tadbirlar ishlab chiqish.
- O'rganilayotgan hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalarining hududga keltirayotgan ekologik zararlarini aniqlash(basharti u mavjud bo'lsa) va uni oldini olish;

XULOSA

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, men bitiruv malakaviy ishimni “Buxoro viloyati Vobkent tumani «Oxunboboyev» massivida yer hisobini yuritish va yer baholash ishlarini o`tkazish” mavzusida bajardim va bitiruv malakaviy ishi mavzusi doirasida quyidagilarni aniqladim:

1). «Oxunboboyev» massivi Buxoro viloyati Vobkent tumanining janubiy-sharqiy qismida joylashgan bo`lib shimoldan “R.Husenov” nomli massivi bilan, sharqdan “So`fidehqon” massivi yerlari bilan, janubdan “Xayrobodcha” massivi yerlari bilan, g`arbdan “Yangi turmush” massivi yerlari bilan chegaradosh

2). Massivda 2645 ta oila istiqomat qilib, aholining umumiy soni 10392 nafarni tashkil etadi.

3). Massivning yillik xarorati 20° S dan yuqori. Paxta usish davridagi musbat xaroratning yigindisi 4750 - 4950 $^{\circ}$ S. Iqlim quruqsizligi bu yerda yogin - sochinning kamligi bilan ifodalanadi. 1 yilda o`rtacha 125 mm yogingarchilik kuzatiladi. Yer satxidan parlanish yiliga 2500 mm atrofidadir. Parlanish va bug`lanish yogingarchilik miqdoriga nisbatan 10-15 marotaba oshib ketadi

4). Massivda olib borilgan yer hisobi natijalariga ko`ra massivning umumiy yer maydoni 2664,9 gektarni tashkil etadi. massiv umumiy maydonining 61.09 % ini, ya`ni 939 ga maydonini haydalma yerlar tashkil qiladi. Daraxtzorlar maydoni 75 ga, bu esa umumiy maydonning 4.8 % ini tashkil etadi. Bunda bog`zorlar maydoni 10 ga, uzumzorlar maydoni 4 ga, tutzorlar maydoni 61 ga ni tashkil etadi. Jami qishloq xo`jalik yerlari 1537 gektar bo`lib, umumiy yer maydonining 70 % ini tashkil qiladi. Tomorqa yerlari maydoni 132 ga bo`lib, bu umumiy yer maydonining 6 % ini tashkil etadi.

5). Massivda olib borilgan yer baholash ishlari natijalariga ko`ra massiv yerlarining bonitirovka ballari maydonlar bo`yicha quyidagicha:

77 ball - 616 ga, 68 ball - 25 ga, 65 ball -13 ga, 60 ball - 188 ga, 54 ball -270 ga, 51 ball - 82 ga, 46 ball - 250 ga, 41 ball - 23 ga, 40 ball - 112 ga, 36 ball - 144 ga, 34 ball - 424 ga. Massiv yerlarining o`rtacha bonitet bali 54 ballni tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib massivni kelajakda yanada rivojlantirish maqsadida, quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1). Yer hisobini yuritishda asosan zamonaviy asboblardan(elektron teodolit, zamonaviy GPS lar) foydalanish.

2). Yer hisobini yuritish muddatlariga amal qilish va ishni o'z vaqtida bajarish.

3). Yer hisobi ma'lumotlarining aniqligini ta'minlash. Ko'p hollarda yer hisobi ma'lumotlaridagi har xillik kuzatiladi. YAni aynan 'itta hududdagi yer hisobi to'g'risidagi ma'lumotlar turli xil bo'ladi.

4). Bizga ma'lumki Buxoro viloyati va ayniqsa Jondor tumanida, jumladan biz tomonimizdan o'rganilgan massivda ham yerlarning xususichtlari nihoyatda xilma-xildir. Hattoki bitta konturning turli qismlarida turli xil tuproqlar tarqalagn bo'lishi mumkin. SHuning uchun yer baholash ishlarini o'tkazishda xar bir yer maydonining xususiyatlari xisobga olinishi maqsadga muvofiq. Bu o'z navbatida tuproqqa solinadigan NPK miqdorini to'g'ri aniqlash imkonini beradi

5). Yer baholash ishlarining o'z muddatlarida bajarish ishlarini tashkil qilish. Bizga ma'lumki, hozir amalda foydalanilayotgan yer baholash ma'lumotlari 2004 yilda bajarilgan ishlar natijasidir. Viloyat hududini to'la qayta baxolash ishlari esa hali o'z nihoyasiga etmagan. Demak, xozir biz amalda qo'llayotgan yerlarning baholash ma'lumolari 8 yil oldin olib borilgan ishlar natijasidir. O'tgan sakkiz yil davomida tuproqning xususitlari o'zgarmay qolishi mumkin emas.

6). Barcha yer tuzish ishlari natijalarini chuqur tahlil qilish va ular asosida aniq ilmiy xulosalar ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" T.: O'zbekiston, 2013y
2. I.A.Karimov, «O'zbyokiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqaror-lik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», T. O'zbekiston 1997
3. I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, T.:O'zbekiston, 2014
4. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.:O'zbekiston, 2009
5. I.A.Karimov. "
6. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi". T. O'zbekiston, 1997
7. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami (I va II qismlar), T.: Sharq, 1998
8. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Davlat yer kadastrini to'g'risida». T.:1998
9. "O'zdavyerloyiha" instituti Buxoro filiali ma'lumotlari.
10. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzishni loyihalash» T.: Yangi asr avlodi,2004
11. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzish iqtisodi». T.: Yangi asr avlodi, 2002
12. Bobojonov A.R., Raxmonov Q.R, G'ofirov A.J. «Yer kadastrini» T.: TIMI, 2008.
13. Avezbaev S., Volkov S.N. « Yer tuzishning ilmiy asoslari» T Yangi asr avlodi, 2002
14. Yer munosabatlarini tartibga solishga doir me'yoriy xujjatlar to'plami, 1-2 tom, T.:1997
15. M.Rustamboev va boshq. "Yer huquqi".Darslik. T.: Toshkent Yuridik instituti, 2002
16. Yer tuzishda iqtisodiy matematik modellar va usullar. Shodmonova G., Abdullaev Z. O'quv qo'llanma. T: 2007
17. G'oyipov H.E. Mehnat muhofazasi. T.:Mehnat, 2000
18. X.Q.Nomozov. "Tuproq bonitirovkasining ilmiy asoslari".T.: "O'zbekiston ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2014 yil.

19. X.Q.Nomozov. “Yer kaqastri asoslari” .T.: “O`zbekiston ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti. 2014 yil.

INTYERNET SAYTLARI

20. www.Google.ru
21. www.Gov.uz
22. www.Lex.uz
23. www.ZiyoNet.uz
24. www.kadastr.ru
25. www.ast.ru
26. www.prom.kz
27. www.18.rosfirm.ru
28. www.basyeref.ru